

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida  
UDK 811. 512. 133*

**MUTALOV SAIDAKBAR XAMIDULLO O‘G‘LI**

**ISTIQLOL DAVRI SIYOSIY PUBLITSISTIKASINING  
LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI**

5A120102 – LINGVISTIKA (o‘zbek tili)

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:**

**Sh. Abdurahmonov  
filologiya fanlari nomzodi**

**Namangan – 2018**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	<b>3</b>
<b>1-bob. Publitsistika va uning o‘ziga xos xususiyatlari</b> .....	<b>7</b>
1.1. Publitsistika tushunchasi va uning tilshunoslik bilan o‘zaro bog‘liqligi...	10
1.2. Publitsistika: gazeta tilining xususiyatlari.....	11
1.3. Siyosiy publitsistikaning o‘ziga xos jihatlari. ....	11
1- bob bo‘yicha xulosalar. ....	11
<b>2-bob. Istiqlol davri siyosiy publitsistikasining leksik-semantik tadqiqi</b> ...	<b>12</b>
2.1. “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasida siyosiy terminlarning tasnifi...	14
2.2. “Yoshlar ovozi” gazetasining leksik-semantik xususiyatlari.....	15
2.3. “Yoshlar ovozi” gazetasida so‘z va iboralarni qo‘llash.....	16
2- bob bo‘yicha xulosalar. ....	11
<b>3-bob. “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasining uslubiy xususiyatlar</b> ...	<b>16</b>
3.1. “Yoshlar ovozi” gazetasi uslubining tahlili.....	11
3.2. “Yoshlar ovozi” gazetasida uslubida qo‘llanilgan faol leksikalar.....	20
3- bob bo‘yicha xulosalar. ....	11
<b>Umumiy xulosalar</b> .....	<b>22</b>
<b>Ilova. “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasida faol va nafaol so‘zlar</b> .....	<b>22</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	<b>86</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi hayot tarzi avvalgilardan shiddatliroq va jadal sur'atlarda davom etmoqda. Insonlarning hayotga bo'lgan munosabati ham, ularning tafakkuri ham mutlaqo yangicha nuqtai nazar, yangicha dunyoqarashi bilan boyib bormoqda. Bu esa o'z navbatida tashqi muhitdan kelgan axborotlarni, yangilik va ma'lumotlarni qabul qilish, tahrirlash va saralash uchun kengroq mushohada yuritishni taqozo etmoqda. Zero, shunday ekan, jamiyatning har bir a'zosidan o'zining fikri va tahlil qilish qobiliyatini yanada kuchaytirishi talab etiladi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, mavjud vaziyatni o'zida mukammal ifoda etadigan, binobarin, jamiyat a'zolariga to'la-to'kis va ob'ektiv tarzda ma'lumot ulashadigan soha bo'lmish publitsistika, ommaviy axborot vositalari va ularning funksional faoliyati uchun yanada muhim vazifa ko'ndalang turibdi. Chunki "Jamiyatimiz hayotida demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi"<sup>1</sup>.

Ommaviy axborot vositalari orasida o'zining til xususiyatlari va uslubiga ko'ra boshqa barcha yo'nalishlarga tayanch bo'ladigan matbuot sohasi alohida o'rin tutadi. O'z navbatida matbuotda publitsistik uslubning o'ziga xos qonuniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Matbuot nazariyasi ijtimoiy voqelikni aks ettirishning alohida bir qonuniyatga asoslanuvchi turi bo'lgan publitsistika nazariyasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Matbuot, jurnalistika va publitsistika bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalar bo'lib, matbuot publitsistika vositasi bilan ish ko'rsa, publitsistika matbuot faoliyati orqali namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Matbuotning o'z funksiyalarini bajarishi, ijtimoiy borliqni o'zida aks ettirishida publitsistika muhim rol o'ynaydi. Ya'ni matbuot ijtimoiy hayotni tasvirlash, tahlil etish va unga qaytadan ta'sir qilishda publitsistikadan keng

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. – 80 b.

<sup>2</sup> Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 281.

foydalanadi. Boshqacha qilib aytganda, publitsistika matbuotning mohiyatini, uning ichki mazmunini, matbuot materiallarining o‘zagini tashkil etadi.<sup>3</sup>

Matbuotning publitsistik ijod turi davr va zamonning ma’naviy ko‘zgusi sifatida, ijtimoiy hayotning murakkab va dolzarb masalalarini yoritishda tilning leksik-semantik taraqqiyotiga, ifoda imkoniyatlarining kengayishiga ta’sir o‘tkazdi. Yana bir jihati o‘zbek adabiy tilining boshqa tillar bilan o‘zaro munosabatga kirish jarayonlariga alohida hissa qo‘shdi.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalari, xususan matbuot nashrlaridagi publitsistik materiallarning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi, gazetalarning shakl va mazmun jihatidan isloh qilinishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ijtimoiy-siyosiy gazetalar, jumladan, “Turkiston”, “Yoshlar ovozi” gazetalarini tilining ma’lum darajada o‘rganilishi adabiy til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, adabiy me’yorga to‘la amal qilishlariga erishish, ta’sirchan axborotni yetkazishda ularning ham o‘rni kattaligini e’tirof etish nuqtai nazaridan davlat siyosati va hukumatimiz talablariga javob beradi.

Tadqiqot davomida Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yoshlar masalalari bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to‘laqonli talqin etish va targ‘ibot qilish, albatta yoshlar tashkilotining rasmiy muassisligidagi nashr asosida tahlil etiladi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkiloti faoliyati asosida harkatga keltiriladi, shu boisdan mazkur tashkilotning 2017-yil 30-iyun sanasi bilan qayta tashkil topgan holda, o‘sha muddatdan boshlab yangi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy yo‘nalishdagi gazeta nashrini nashr qila boshladi. Dastlab “Turkiston” nomi ostida nashr qilingan gazeta tugatilib, soha muassisligidagi yangi formatdagi nashr yo‘lga qo‘yildi. Mazkur ijtimoiy-siyosiy nashr – “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasini leksik-semantik va uslubiy tadqiq etish, xronik jihatdan 2017-2018-yillardagi sonlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa mavzuning davr talabiga mos va dolzarbligini belgilab beradi.

---

<sup>3</sup> Жамоа. Ҳозирги замон журналистикаси. – Тошкент: Алоқачи, 2008. – Б.56.

Bu borada o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda, siyosiy nashrning matn tili va lug'at tarkibidagi leksik-semantik o'zgarishlarni aniqlash, yangi so'zlar bilan boyib borishi, siyosiy terminlarning leksikografik tahlili, uslubiy xususiyatlarini o'rganish, hali oldimizda turgan muhim vazifalarimizdan biridir.

Ommaviy axborot vositalarining o'rni va uning til rivojiga, til madaniyati shakllanishiga ta'siri bu uslubni o'rganishga bo'lgan qiziqishni tobora orttiraveradi. Hozirgi kunda lingvist olimlar gazeta matnining tuzilishi, mazmuni, uslubi, grammatik tuzilishi va leksikasini o'rganmoqdalar.

Gazeta muayyan mamlakatda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni operativ yoritib beruvchi manba sanaladi. Tadqiqot ishida aynan siyosiy nashr tilini o'rganishga ahamiyat qaratish quyidagilar bilan asoslanadi: 1) gazeta matni tadqiq qilishda alohida yondashuvni talab etuvchi matn turi hisoblanadi. Uning alohida jihatlaridan biri – jahon, vaziyat, muammo haqida auditoriyaga aniq ma'lumot yetkazadi; 2) keyingi yillari mamlakatda yuz berayotgan siyosiy jarayonlar tilda, xususan, ommaviy axborot vositalari tilida o'z aksini topmoqda. Til vaziyati mamlakatda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'siri ostida ekanligi bilan qiziq. Gazeta matnlarida ta'sir etuvchi yo'nalish kuchayganligi sezilib turadi.

Til birliklarining matnda biror vazifani bajarishi nafaqat o'sha birlik semantikasi, balki muayyan kommunikativ sharoitlar xususiyatiga ham bog'liq. Matbuot katta hajmdagi ma'lumotni yetakazish bilan hozirgi siyosiy va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqealarni yoritishga xizmat qiladi, inson faoliyatinnig turli sohalari bilan tanishishga imkon yaratadi, o'quvchilarni o'ziga jalb etish maqsadida turli fikr va qarashlarni targ'ib etadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi tilshunoslikning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri – matubot tilining siyosiy publitsistika tadqiqini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur masalaning o'rganilganlik darajasi, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni qamrab olgan gazetalar matnining mazmuni, uslubi,

grammatik qurilishini o'rganish jarayoni haqidagi fikrlar taqdim etilgan. Ommaviy axborot vositalarining til rivojiga hamda lisoniy madaniyatning shakllanishiga ta'siri masalalari yoritilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek tilshunosligida ommaviy axborot vositalarida keltirilgan siyosiy materiallar, xususan gazetalardagi publitsistik uslub, xususan, gazeta tili va uslubi, gazeta janrlarining o'ziga xos xususiyatlari K.Yusupov, A.Boboyeva, S.Muhamedov, T.Qurbonov, A.Abdusaidov, D.Teshaboyeva, N.Jumanova kabi tadqiqotchilar tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan. Davlat va nodavlat siyosiy gazeta nashrlarning tili maxsus o'rganilgan emas.

Mustaqillik yillarida nashr etib kelinayotgan muayyan turkumdagi gazetalarning siyosiy materiallarini til, xususan, lesik-semantik va uslubiy tahlil etishda, ularni shakllantiruvchi manbalarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy mohiyatga ega. Mazkur dissertatsiya ishi aynan mana shu jihatlarni o'rganishga qaratilgan.

**Tadqiqotning ob'yekti va predmeti.** "Yoshlar ovozi" gazetalarida nashr etilgan siyosiy publitsistik janrga oid materiallarning til xususiyatlari, uslubiy jihatlarni tahlil qilishda o'zbek tilshunosligida mavjud ilmiy asarlar, darslik va qo'llanmalar, gazeta tiliga oid maxsus tadqiqotlar, publitsistik maqolalar ishning ob'yekti va tadqiq materiali hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad "Yoshlar ovozi" gazetalaridagi siyosiy xarakterga ega bo'lgan publitsistik materiallarni leksik-semantik tahlil etish va uslubiy hususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Shuningdek tadqiqot oldiga tadqiqot ob'ekti hisoblangan gazetalaridagi ijtimoiy-siyosiy publitsistik materiallar tilining hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi rolini ochib berish, publitsistik uslubining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatish, leksemalarning ma'no va uslubiy vazifalarini tadqiq qilish vazifalari ham belgilab qo'yilgan.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ishning asosiy maqsad-mohiyatidan kelib chiqib ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- "Yoshlar ovozi" gazetalaridagi siyosiy materiallarni publitsistika tili va uslubini o'rganishning muhim jihatlarini bayon qilish;
- Siyosiy publitsistikaning til xususiyatlari, matn tuzilishi va uni uslubiy tahlil etish, eng avvalo o'zbek adabiy tilining, xususan publitsistikaning siyosiy jihatdan tadqiq etish;
- Siyosiy publitsistik maqolalar tilining filologik tadqiqi masalasini yoritish;
- Siyosiy materiallarda so'zlarning qo'llanishi va janr xususiyatlaridagi o'ziga xosliklarni izohlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Yangi davr publitsistikasidagi siyosiy materiallar tili va uslubiy xususiyatlari va muammolari bayon qilindi;

"Yoshlar ovozi" gazetalaridagi siyosiy materiallar tilining hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi rolini ochib berish, publitsistik uslubining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatildi

- Yangi davr ijtimoiy-siyosiy maqolalarning lisoniy o'ziga xosliklari birinchi marta tadqiq qilindi va ulardagi so'zlarning qo'llanish mahorati ochildi;
- Siyosiy publitsistikasidagi obrazli ifodalar ilmiy tavsiflandi;
- Gazetalardagi ijtimoiy-siyosiy publitsistik matn yaratish mahorati ilmiy baholandi.

– Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik, so‘z yasalishi, publitsistik uslubining takomillashuvida siyosiy publitsistik materiallarning roli aniqlandi;

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqotning metodologik asosini mustaqillik mafkurasi, milliy g‘oya va milliy ma’naviyatga doir asarlar, dialektika, umumiylik-xususiylik kategoriyalari tashkil etadi. Tadqiqotda esa differensial-semantik, qiyoslash va distributiv, tavsiflash, lug‘aviy-ma’naviy tahlil, uslubiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda A.To‘raxo‘jayeva, K.Yusupov, D.Ne‘matova, A.Boboyeva, S.Muhamedov, T.Qurbonov, X.Xamrayeva, A.Abdusaidov, D.Teshaboyeva, N.Jumanova, M.Sulaymonov kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlariga asoslanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot materiallaridan gazetalaridagi siyosiy materiallarni publitsistika tili va uslubini o‘rganishda, hozirgi o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichida leksik-semantik, uslubiy me‘yorlarning belgilanish jarayonini siyosiy publitsistik materiallar tili misolida namoyon etishda ahamiyatlidir. Shuningdek, publitsistik matn tuzilishi va uni uslubiy tahlil qilishda, davlat va nodavlat nashrlarga ijtimoiy-siyosiy materiallarni tayyorlashda, gazeta janrlari va siyosiy lingvistikaning muayyan masalalarini o‘rganishda, jurnalistika sohasiga oid ta’lim yo‘nalishlaridagi dars mashg‘ulotlarida va ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo‘shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

**Ishning sinovdan o‘tishi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining yig‘ilishi (2018 yil may)da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

**Dissertatsiya natijalarining e‘lon qilinganligi.** Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni NamDU ilmiy to‘plamlarida e‘lon qilingan 4 ta maqolada o‘z aksini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 76 bet.



## **1-bob. Publitsistika va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

### **1.1. Publitsistika tushunchasi va uning tilshunoslik bilan o‘zaro bog‘liqligi**

Ommaviy axborot vositalari orasida o‘zining til xususiyatlari va uslubiga ko‘ra boshqa barcha yo‘nalishlarga tayanch bo‘ladigan matbuot sohasi alohida o‘rin tutadi. O‘z navbatida matbuotda publitsistik (jurnalistik) uslubning o‘ziga xos qonuniyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Publitsistika va jurnalistikaning o‘zaro bog‘liqligi va farqli xususiyatlarini izohlash o‘rinlidir.

“Publitsistika” lotincha “publicus” so‘zidan olingan bo‘lib “ijtimoiy”, “jamiyatga oid” degan ma’noni beradi. U hayotni tasvirlashning alohida bir yo‘li, usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotining shu kundagi, ayni zamonda bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea va hodisalarni aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, yechilishi kerak bo‘lgan muammolarni ko‘rib chiqadi, shu kungi, ayni zamondagi kishilar uchun xizmat qiladi.<sup>4</sup>

Jurnalistika – ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to‘plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye, axborot agentliklari va b.) orqali tarqatish bilan shug‘ullanadi. Jurnalistika ommaviy targ‘ibot va tashviqot shakllaridan biri. Uning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog‘liq<sup>5</sup>.

Demak, har ikki tushuncha ham bevosita jamiyat a‘zolari uchun xizmat qiladi, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisani real va tahliliy tasvir etuvchi ijodiy jarayonni ifoda etadi. Bu ikki ijodiy tushunchani bugunga qadar ko‘plab izlanuvchilar ilmiy o‘rganib, mavjud qonuniyatlarini tadqiq etishgani ma’lum.

Jurnalistika va publitsistikaning bir-biriga yaqinligi, tadqiqotchilar fikricha, har ikkisining jamiyat hayotida faolligi, ijtimoiy-siyosiy boshqaruvda

---

<sup>4</sup> Жамоа. Ҳозирги замон журналистикаси. – Тошкент: Алоқачи, 2008. – Б.56.

<sup>5</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – 3-ж. Б – 642.

ishtirok etishi, ommani ijodiy faoliyati orqali tarbiyalashi, jamoatchilik fikrini shakllantirishi va boshqa sohalarda ko‘rinadi<sup>6</sup>.

Mazkur tushunchalar orasida tafovut bo‘lishiga qaramay, ular biri ikkinchisini taqozo etadi, har ikkisining maqsad va vazifalari bir. Shuningdek, ularning har ikkalasi muayyan axborotni bir xil lisoniy qolip asosida yetkazishiga ko‘ra umumiylikka ega. Garchi ijodkor matbuotning mavzuviy va yo‘nalish jihatdan turlicha uslubidan foydalansa-da, sohaning har qanday ichki yo‘nalishlari yoki janrlari ham o‘zbek adabiy tili normalarining qat‘iyligiga amal qilishini talab etadi. Bu birinchi navbatda o‘zbek adabiy tilining jozibadorligi, keng imkoniyatga ega ekani, ijodkorning talab va istagini ifoda eta oladigan darajada mukammal va sofligini ko‘rsatishga imkoniyat yaratadi.

Ijodkor ham shu nuqtai nazardan yondashgan holda, umumiy til masalalariga oid barcha jihatlarini o‘zida aks ettirgan qonun hujjatlari va aynan jurnalistik faoliyatni tartibga soluvchi rasmiy hujjatlarga tayanishi ko‘zda tutilgan.

Til borasidagi dastlabki muhim hujjat, albatta, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risida”gi Qonuni har bir shaxs uchun xoh u jurnalist yoki publitsist bo‘lsin, xoh u boshqa soha vakili bo‘lsin o‘z tafakkur maxsuli, mulohaza va muayyan axborotini bayon etishida asosiy mezon bo‘ladi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”<sup>7</sup> deya mustahkamlab qo‘yilishi o‘zbek adabiy tilining bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatishga, tilga davlat va umumxalq mulki sifatida munosabat bildirishga zamin yaratdi. O‘z navbatida “ushbu qonunlarning qabul qilinishi kishilarda o‘z nutqiga talabchanlik hissini oshirdi. Darhaqiqat, ona tiliga e‘tiborning kuchayishi ayrim kishilarda, ayniqsa, adib va jurnalistlarda o‘z tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirish tuyg‘usini kuchaytirmoqda”<sup>8</sup>.

---

<sup>6</sup> Бу ҳақда қаранг: Босма оммавий ахборот воситалари тахририятлари учун қўлланма. / Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиёва Н., Муратова Н. – Тошкент: 2008. Б.68.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. Б - 72.

<sup>8</sup> Танланган асарлар. Нурмонов А. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-ж. – Б. 288.

Binobarin, umumiy publitsistik faoliyat yuzasidan ham O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Nashirlik faoliyati to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari birinchi navbatda ijod ahli uchun haqiqiy dasturulamal bo‘lgani holda, so‘z va matbuot erkinligini ta‘minlashga hissa qo‘shib, adabiy til qadr-qimmatining mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

O‘zbek tiliga e‘tiborning kuchayishi, jamiyat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning tilda aks etishi tilning yangi so‘zlar bilan boyib borishi, leksik-semantik qatlamining kengayishi, terminologik o‘sish kabi ko‘plab tizimli yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda.

Tilda bo‘ladigan o‘zgarishlar bosqichma-bosqich ravishda davom etadigan tadrijiy jarayon bo‘lib, til taraqqiyotining barcha davrlarida ham u o‘z aksini topgan. Ya‘ni birgina istiqldan to bugungi kunga qadar ijtimoiy taraqqiyot natijasida matbuot sahifalarida aks etgan publitsistik ijodiy ishlarda tilimizning, ayniqsa, leksik-semantik qatlamida juda katta yangilanishlar ro‘y berganini ko‘ramiz.

Matbuot ijtimoiy ong shakli sifatida o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlaridan foydalanadi. U kundalik faoliyatida tilning ravnaqiga xizmat qilish bilan birgalikda tildagi muayyan o‘zgarishlarni aks ettirish usullaridan keng foydalanadi. Matbuot bilan tilning bir-biriga yaqinlashtiruvchi eng asosiy narsa – so‘zdir. Til ham, matbuot ham asosan so‘z vositasida ish ko‘radi, hayotni til imkoniyatlari asosida tasvirlaydi.

Tillar barcha zamonlarda ham jamiyat a‘zolarining ehtiyojlarini qondirish va aloqa uchun xizmat qilib kelgan. Bunda til, ma‘lum bir guruh yoki turli tabaqa vakillari uchungina emas, balki butun bir jamiyat uchun umumiydir.

O‘zbek adabiy tili ham, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida shu tilda so‘zlashuvchi insonlarning o‘zaro fikr-mulohazalari va istaklarini ifoda etish, bir-birlariga yetkazish bilan bog‘liq kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi.

Tilning tafakkur, tashqi muhit, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy vaziyat bilan uzviy bog‘liqligi til uslublarida, xususan publitsistik uslubda ko‘zga tashlanadi.

Istiqloldan bugunga qadar publitsistik uslub namunalari mamlakatda yashaydigan barcha fuqarolarning tilga bo‘lgan munosabatini huquqiy madaniyati va siyosiy ongini oshirishga hissa qo‘shib kelmoqda. Publitsistika sohasining keng taraqqiy etib, uning ichki yo‘nalishlari ham kengaygan holda, siyosiy xususiyat kasb etishi ijtimoiy zaruratga aylandi.

Adabiyotshunos olim M.Husainov, publitsistikani shunday xarakterlaydi: ...davrning keng ma’nodagi aktual ijtimoiy-siyosiy masalalari uning predmetidir. o‘zining janrlari miqyosi bilan davrning eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalari uning uchun keng maydondir. Shunga ko‘ra, muallif publitsistikani tematik jihatdan uch turga ajratib tahlil qiladi. Ilmiy publitsistika, siyosiy publitsistika, badiiy publitsistika.<sup>9</sup>

Til – siyosiy hayotning asosi, binobarin, milliy til rivojlanmasa, siyosiy ong ham o‘smaydi. Siyosiy til ijtimoiy-siyosiy borliqni nafaqat ma’lum bir tushunchalar, qarashlar, g‘oya va qadriyatlar orqali, balki xalq, millatning milliy-madaniy boyligi sifatida namoyon bo‘ladi<sup>10</sup>. Shu nuqtai nazardan siyosiy publitsistikaning muhim jihatlarini, uning til xususiyatlari, matn tuzilishi va uni uslubiy tahlil etish, eng avvalo o‘zbek adabiy tilining, xususan publitsistikaning siyosiy jihatdan tadqiq etishni talab etadi. Siyosiy publitsistikani yaxshi anglash uchun birinchi navbatda, siyosat va u bilan bog‘liq tushunchalariga aniqlik kiritib olish zarur.

Siyosat (yunoncha polis/politika – shahar, davlat va jamiyat) – davlat boshqaruvining turli shakllarini anglatadi, jamiyatni boshqarish bilan bog‘liq faoliyatni ifoda etadigan siyosiy tizimiga oid tushuncha hisoblanadi<sup>11</sup>. Mazkur tushunchani muayyan sohaning funksional maqsadidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin.

---

<sup>9</sup> Бу ҳақда қаранг: Муаллифлар. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – 120 б.

<sup>10</sup> Эшанова М. Сиёсий лингвистиканинг фалсафий асослари. – Тошкент: Академија, 2010. – Б. 4-19.

<sup>11</sup> Бу ҳақда қаранг: Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 524 б.

Siyosat termini manbalarda: “Davlat hokimiyati shakllarini amalga oshirish va boshqarish; davlat hokimiyatining mamlakatni boshqarishda va xalqaro munosabatlarda tutgan yo‘li” ma’nosini anglatishi qayd etiladi<sup>12</sup>.

Siyosat fanlararo bilim sohasi. Unda ijtimoiy fanlarning barcha kategoriyalari ishtirok etadi<sup>13</sup>. Shu jumladan, publitsistika ham, jamiyatdagi barcha toifadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish ob’ekti sifatida u bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatda siyosiy tizimning rivojlanib borishi, davlat boshqaruvidagi siyosiy jarayonlar, xalq manfaati va insonlarning siyosiy faolligiga bo‘lgan yuksak e’tibor, siyosiy qarashlar va nazariyalarning ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, xususan, matbuotni qamrab olishi, bevosita siyosiy publitsistikaning o‘zbek adabiy tili imkoniyatlaridan foydalangan holda maydonga chiqishiga imkon berdi.

---

<sup>12</sup> Тўрахўжаева А. Ижтимоий-сиёсий лексика хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2011. – № 1. – Б. 117-118.

<sup>13</sup> Бу ҳақда қаранг: Шаропова Р. Изоҳли луғатлардаги янги ижтимоий-сиёсий терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 104.

## 2.2. “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasining leksik-semantik xususiyatlari

Har qanday nashr soha, ixtisosligi, mavzu yo‘nalishidan qat’iy nazar, o‘quvchi ongi va tafakkuriga ta’sir etish orqali jamiyat ruhiyatini belgilaydi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o‘z yo‘nalishi doirasida munosabatni bildiradi. Bu nashrlarning qanday sohaga daxldorligi, qaysi til xususiyatlariga amal qilishidan qat’iy nazar, uning ijtimoiy-siyosiy vazifasini belgilaydi. Ana shu nuqtai nazardan har qanday nashr – ijtimoiy-siyosiy voqelikdir. Faqat sohasiga qarab u yoki bu badiiy, ilmiy, iqtisodiy-huquqiy yoki siyosiy sohaga tegishli bo‘ladi.<sup>14</sup>

Matbuot nashrlaridagi siyosiy materiallarning bevosita tahlil etishda, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, uslubiyat, ijtimoiy-siyosiy leksika yo‘nalishiga oid N.To‘raqulovning “Rus-o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy lug‘ati” (Toshkent, 1922. – 87 bet), G‘ozi Olimning (Yunus) “Ruscha-o‘zbekcha qisqacha huquqiy va siyosiy lug‘at” (Toshkent, 1926. – 33 bet), M.Hasanning “O‘zbekcha siyosiy-ijtimoiy lug‘at” (Toshkent, 1926. – 87 bet), D.F.Rashidova, M.T.Nigmatboyevaning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug‘at” (Toshkent, 1980. – 260 bet), M.X.Karayevaning “Fransuzcha-ruscha-o‘zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug‘at” (Toshkent, 1980. – 152 bet) Mualliflar jamoasining “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar, atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug‘at) (Toshkent, 2002. – 124 bet), “Tinchlik va bag‘rikenglik atamalari izohli lug‘ati” (Toshkent, 2005. – 140 bet), “Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug‘ati” (Ruscha-o‘zbekcha) (Toshkent, 1976. – 352 bet), “Mustaqillik Izohli ilmiy-ommabop lug‘at” (Toshkent, 1998. – 318 bet)<sup>15</sup> kabi leksikografik manbalarga tayanish maqsadga muvofiq.

Matbuotdagi siyosiy materiallarni til, xususan, lesik-semantik va uslubiy tahlil etishda, ularni shakllantiruvchi manbalarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy mohiyatga ega.

---

<sup>14</sup> Абдулазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Тошкент: Академия, 2002. – 192 б.

<sup>15</sup> // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. №6. – Б. 59.

Albatta siyosiy publitsistik materiallar tili xususiyatlariga nazar tashlansa asosiy tarkibiy qismida bevosita ijtimoiy-siyosiy leksemalarning ishtiroki namoyon bo‘ladi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida siyosiy leksika yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda siyosiy xarakterga ega leksemalarni tematik guruhlariga ajratish bo‘yicha turlicha yondashuvlar mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli<sup>16</sup>.

Siyosiy publitsistikaning leksik xususiyatidan kelib chiqqan holda, quyidagicha leksik guruhlarni tasniflash mumkin:

- davlat boshqaruviga oid leksik birliklar;
- davlatchilik tizimi leksikasi;
- iqtisodiy jarayon bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy leksika;
- siyosiy jarayon va munosabatlar bilan bog‘liq siyosiy leksika;
- diplomatik leksika;
- ma’muriy-hududiy bo‘linish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy leksika;
- aholining ijtimoiy qatlami leksikasi;
- ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni ifoda etuvchi leksik birliklar;
- rasmiy davlat hujjatlarini ifoda etuvchi leksemalar;

Mazkur tasniflar siyosiy leksema guruhiga ko‘ra bir mazmuniy maydonga birlashadi va barcha leksik birliklar muayyan maqsadga ko‘ra siyosiy matnda qo‘llaniladi.

Siyosiy gazeta tili – yozma nutqning nisbatan tartiblashtirilgan, ijtimoiy-siyosiy atamalar va uslub jihatdan jiddiy va rasmiylikni ifoda etgan, adabiy nutq normalariga asoslangan ko‘rinishi bo‘lib, publitsistik ijod turi paydo bo‘lgandan keyin shakllangan turi sanaladi.

U bir tomondan, yozma nutqning rasmiylik an’anasini, ma’lum darajadagi kitobiylikni davom ettiradi, ikkinchi tomondan, og‘zaki nutq xususiyatlarini o‘ziga singdira boradi. Ayni vaqtda og‘zaki nutq madaniyatining yuksalishida, yozma nutqqa xos bo‘lgan tartib va izchillikning og‘zaki nutqda ta’sir etishida

---

<sup>16</sup> Bu haqda qarang: Профессор Иномжон Расуловнинг илмий мероси ва hozirgi zamon uzbek tilshunosligining dolzarb muammolari: KДПИ (илмий maqolalar tўplami.) – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – 460 b.

muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi, adabiy tilning xalq nutqiga singib borishiga imkon hozirlaydi.

Xalq tilidan unumli foydalanish, xalq tili boyligiga tayanish va xalqaro maydondagi siyosiy jarayonlarning keskin kuchayishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning tobora kengayib borishi siyosiy gazeta tilining ommaviylashishini, demokratlashishini uzluksiz ta'minlab turadi.

Ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisalarning o'zgarishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'ladigan o'zgarishlar, ob'ektiv hodisalarning moqiyatini tobora aniqroq, chuqurroq o'rganish va shu kabilarning hammasi, shubhasiz, tilda o'z ifodasini topishi kerak bo'ladi<sup>4</sup>. Bu jarayon, ya'ni tilning xalq tarixi bilan bog'liqligi, ayniqsa, leksika sohasida ochiq ko'rinadi<sup>5</sup>.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek adabiy tildandan unumli foydalanish, xalq tili boyligiga tayanish va xalqaro maydondagi siyosiy jarayonlarning keskin kuchayishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning tobora kengayib borishi siyosiy gazeta tilining ommaviylashishini, demokratlashishini uzluksiz ta'minlab turadi. Bu esa o'zbek adabiy tili me'yorlarining shakllanishi va siyosiy publitsistika orqali umumxalq foydalanuviga hissa qo'shadi.

O'zbek tili leksikasining turkiy (umumturkiy va o'zbekcha), forschatozkikcha, arabcha, ruscha va yevropa(ingliz)cha qatlamlardan iborat ekanligi, shuningdek, unda xitoy, mo'g'ul, hind, yunon tili elementlari ham mavjudligi A.Abdullayev, B.Bafojev, E.Begmatov, K.Yusupov, G.Muhammadjonova, K.Yusupov kabilarning tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan, miqdoriy va sifatiy belgilari sharhlangan.

O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat boshqaruvi, hukumat siyosati, davlat hokimiyati va vakillik organlarining rasmiy faoliyati, xalqaro ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy aloqalar, harbiy va strategik chora-tadbirlar, diplomatik aloqalar, mamlakatdagi qonun va qonunosti hujjatlarining amaliyotini bevosita targ'ib qiluvchi, siyosiy faoliyat va jarayonlarni baholovchi va jamoatchilikka yetkazib beruvchi nashrlar, xususan siyosiy gazetalar aynan shu yo'nalishdagi davlat idoralari muassisligida taqdim etiladi.



Bugungi kunda mazkur yo‘nalishda “Xalq so‘zi” (“Народное слова” ruscha nashri), “Yoshlar ovozi” (“Молодеж Узбекистана” ruscha nashri), siyosiy partiyalarning rasmiy nashri (“O‘zbekiston ovozi” kabi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining rasmiy nashrlari (“Namangan haqiqati” kabi), huquq-tartibot idoralari va siyosiy tashkilotlarning rasmiy nashr(“Jamiyat” kabi)lari faoliyat olib bormoqda.

Tadqiqot davomida Respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yoshlar masalalari bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to‘laonli talqin etish va targ‘ibot qilish, albatta yoshlar tashkilotining rasmiy muassisligidagi nashr asosida tahlil etiladi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkiloti faoliyati asosida harkatga keltiriladi, shu boisdan mazkur tashkilotning 2017-yil 30-iyun sanasi bilan qayta tashkil topgan holda, o‘sha muddatdan boshlab yangi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy yo‘nalishdagi gazeta nashrini nashr qila boshladi. Mazkur siyosiy “Yoshlar ovozi” gazetasi publitsistikasini leksik-semantik va uslubiy tadqiq etish, xronik jihatdan 2017-2018-yillardagi sonlarni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy gazetalardagi materiallarida o‘zlashma so‘zlarning nisbatan keng qo‘llanilayotganiligi ko‘zga tashlanmoqda. M: *“Xizmat ko‘rsatish darjasining cheklangani, hududlarda muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning yaxshi rivojlanmagani, navigatsiya va infomarkazlar, malakali kadrlarning yetishmasligi alohida ta’kidlandi”* (“Yoshlar ovozi”, 2017-yil 67-son) Ba’zi xil matkriallarda rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llanar ekan ularning qavs ichida uni qaysi ma’noda qo‘llanganini ko‘rsatib o‘tiladi yoki aynan muqobil varianti qo‘llanadi. “Yoshlar ovozi” gazetasining *“Yo‘lboshchiga yelkadosh yoshlar”*, *“Har bir murojaatga munosabat jiddiy”*, *“Odamlarning bunyodkorona mehnatini qadrlab, ularga munosib turmush sharoitini yaratish – eng muhim vazifamizdir”* (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 69,74,95-sonlari) kabi maqolalarining leksik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda 50 % dan ko‘proq so‘zlar o‘zlashma qatlamga xosdir. Masalan: *“Har bir murojaatga munosabat jiddiy”* nomli

maqolasida jami 621 ta leksema qo‘llangan. Maqolada ishlatilgan so‘zlarning 90 foizi bugungi o‘quvchi uchun tushunarli. Maqoladagi so‘zlarni “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”<sup>17</sup> bilan solishtirish orqali buni yanada aniqlashtirdik.

Ma’lumki, siyosiy nashrlardagi materiallarning bosh vazifasi adabiy til me’yorlarini saqlab borish, uslublar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash hamda xalq tili imkoniyatlarini yanada kengaytirishdan iborat. Buning uchun esa o‘zlashma so‘zlar tarkibini kengaytirish, xalq tilidagi so‘zlarning muqobil variantlarini faollashtirish va uning leksik imkoniyatlarini adabiy tilda mujassamlashtirish lozim. Ana shuni e’tiborga olgan holda hamda bugungi ijtimoiy-siyosiy islohotlarni barqarorlashtirish va jahon hamjamiyati o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasida o‘zlashma qatlam so‘zlardan unumli foydalaniladi.

Siyosiy materiallar o‘z tabiatiga ko‘ra tasvirlayotgan voqea-hodisalar, siyosiy jarayonlar va xabarlarini dallillash, tahlil qilish ehtiyojidan kelib chiqib, internatsional so‘zlarni ishlatadi.

O‘zbek siyosiy publitsistikasining leksik-semantik xususiyatlarini belgilovchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

a) adabiy tilimizga muntazam ravishda rus va ingliz tillari ta’sirining kuchli bo‘lganligi, shuningdek rasmiy siyosiy nashrlar(internet sahifasi)ning ko‘p tillilik xususiyatini kasb etgani;

b) mamlakat ijtimoiy-siyosiy nashrlari va internet tarmog‘idagi rasmiy siyosiy sahifalarning tarqalganligi;

v) O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida xalqaro munosabatlarning tobora kengayib borishi;

g) adabiy tilning me’yorlashtirib tartibga solinganligi.

Siyosiy publitsistik asar xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy doiraga daxldor qamrovli auditoriyasining mavjudligi bilan xarakterlanadiki, bu xususiyat uning

---

<sup>17</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007, 5-жилдлик

tili rasmiy bo'lishini taqozo qiladi. Mazkur talab publitsistlar oldiga anchagina murakkab vazifalar qo'yadi. Bu yo'nalishdagi materiallar tahlili va iste'molida lug'atimizga o'zlashgan qatlam va yangi kirib kelayotgan so'zlarni ko'zdan kechirgan holda, bunday so'zlarning o'zbekcha muqobili bo'lmaganlarini olib qolish, ularning tilimizdagi ma'no o'zgarishini belgilash, keraksizlaridan voz kechish masalasidir.

Shuningdek, siyosiy gazeta materiallari tilini leksik va semantik xususiyatlarini misollar orqali aniq farqlarni kuzatish mumkin. Bu farqlar dastlab ayrim leksik vositalarni qo'llashda ko'zga tashlanadi. Ba'zi so'zlar, asosan, ruscha-internatsional so'zlar, xalqqa hali tanish bo'lmaganligi, omma yoppasiga og'zaki nutqda, hatto, jonli so'zlashuvda keng foydalanilmagan bo'lsada gazeta tilida qo'llana boshladi: *interaktiv xizmat, innovatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, press-klub, portal, iqtisodiy infratuzilma, memorandum, start up...* bunday so'zlarni yana davom ettirish mumkin. Demak, rus tilidan va u orqali boshqa tillardan qabul qilingan bunday so'zlarning orfografiyasi ham talaffuzga tayanganligini kuzatdik.

Sifatdosh va boshqa qo'shimchalarning ishlatilishida gramatik qoidalarga rioya etib, leksemalarning qo'llanishida so'z tartibiga amal qilinadi. Masalan: *“Diniy tafakkurga ko'ra, shuningdek, dunyoviy nuqtai nazardan ham gunohga botgan, noqonuniy xatti-harakat sodir etgan va to'g'ri yo'ldan og'ganni jazoga tortilmog'i darkor”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 86-son*) Keltirganimiz, bu faktlardan shu narsa ko'rinadiki, mazkur gazeta tilining orfografiyasi asosan siyosiy (jiddiy) va rasmiy ruhda bo'ladi. Bunga sabab imloviy prinsiplarning o'z normasi asosida foydalanilib, adabiy normaning izga tushib yetib barqaror holatga kelganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham yozuvda ha mantda ham lisoniy tartiblarga amal qilinadi.

Nutqning ta'sirchanligini ta'minlash, ma'naviy yuksalish yo'lida, ba'zi leksik vositalarning ma'lum kontekstlardagi vazifasi o'zgardi: *“yo'l solmoq”* (*“Bir yil ilgari solinib tugatildi”*) *“bino, uy, imorat yasalmog”* (*“Samarqandda kino-teatr yasash uchun...”*), *“Ma'ruza yasamoq”* (*“Konferensiyada ishtirokchi*

*tomonidan ma'ruza yasaldi*") kabi o'rinlarda qo'llangan "yo'l solmoq", "imorat, bino, uy solmoq", "doklad yasamoq" kabi leksik vositalar "barpo etmoq", "bunyod etmoq", "bino yoki kino-teatr qurmoq", "ma'ruza tuzmoq yoki ma'ruza qilmoq" kabi variantlar bilan almashtirildi.

Bu holatlar gazetaning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xolda yuksalib borishi va tilining o'zgarib borishi ifoda etilib, adabiy tilimiz normalari barqaror holatda qo'llanib borilayotganidan dalolatdir. Turli yasovchi va o'zgartuvchi qo'shimchalarning ishlatilishida singarmonizmga xos holatlar ko'zga tashlanadi. Demak, mana shu qo'shimchalarning (ba'zan ayrim leksik vositalarning ham) qo'llanishidagi har xillik gazetaning kamchiligi emas, balki davr nuqtai nazaridan adabiy tilimizdagi, jumladan, gazeta tilidagi davom etib kelgan an'anaviy kitobiylikning hali ma'lum darajada saqlanib qolganligi va ba'zi dialektal holatlar taqozosidir. Shuning uchun ham biz siyosiy gazeta tilidagi bunday xususiyatlari izlanish qiyinchiliklari, yuksalish yo'lidagi bosqichlar, gazeta tilining davriy taraqqiyoti deb qarashni lozim topamiz.

Siyosiy gazeta materiallari ham qadimdan yashab kelgan xalq tili boyligiga tayandi. Xalq tili imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda nutqiy vositalarni o'z sahifalarida takror-takror qo'llab, uni keng xalq ommasiga yoyishga faol qatnashib o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Vaqt nuqtai nazaridan u qadar katta bo'lmagan bu davr matbuotimiz taraqqiyotida ulkan o'zgarishlar yasadi: avvalo Istiqlol davrining boshida yangi tipdagi matbuot tug'ildi – xalq manfaatini himoya qiluvchi, uning intilishlarini ifodalovchi, birlamchi siyosiy jarayonlar haqida axborot beruvchi matbuot dunyoga keldi. Shuning uchun ham istiqloq matbuotining, jumladan, o'zbek siyosiy matbuotining butun taraqqiyoti tarixi xalq, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy islohotlar tarixi bilan uzviy bog'liq.

Hozirgi kun siyosiy gazeta tilining har tomomlana rivojlanishi va imkoniyatlarining kengayishini davr taraqqiyoti bilan, xalqimiz dunyoqarashi va siyosiy bilimining har tomomlana o'sganligi bilan izohlash lozim. O'tgan davr mobaynida jurnalistlar son va sifat hamda siyosiy savodxonlik jihatdan

nihoyatda yuksaldi. Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalish muxbirlar jamoasi vujudga keldi. Xalqimizning ijtimoiy faolligi oshganligi va jarayonlarga fuqarolik pozitsiyasi bilan munosabat bildirib borayotganligi tufayli gazeta ularning zaruriy axborot manbasi bo‘lib qoldi. Mana bu omillar tilimizning ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanishga, ayni vaqtda, boshqa tillardan qabul qilingan leksik vositalari yozma nutqqa singdirishga keng yo‘l ochdi.

Endilikda adabiy tilimiz normalari puxta ishlandi. Binobarin, hozirgi kun ijtimoiy-siyosiy nashrlar tili so‘z qo‘llashda ham, grammatik qo‘shimchalardan foydalanishda ham, gap tuzishda ham, umuman olganda lisoniy xususiyatlarni ifoda etishda har tomonlama yuksak darajada taraqqiy etdi.

Siyosiy yo‘nalishdagi nashrlar jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini yaratayotgan, xalqimizning manfaati va huquq-majburiyatlarini, barqaror rivojlanish va demokratik islohotlarni ko‘rsatib turuvchi kundalik faoliyat oynasidir. Demak, siyosiy gazeta davlat hayoti bilan chambarchasdir. Bugungi kunda “Yoshlar ovozi” gazetasi – yoshlarga oid davlat siyosati asosiya mamlakatdagi muhim siyosiy jarayonlar jarchisi sifatida yangi zamon bilan yashamoqda. U navqiron, yoshlar siyosati bilan hamnafas, hamfikr, keng ommaga, siyosat arboblari, ijtimoiy-siyosiy muxbirlar va yoshlar ommasining katta armiyasiga tayanib, O‘zbekisto nyoshlar ittifoqining chinakam dastyori bo‘lib qolgani uchun bor imkoniyatlarini ishga solyapti, shuningdek adabiy til siyosatiga ko‘maklashmoqda. Xuddi ana shu jarayon gazeta tilini xalq og‘zaki nutqi bilan tutashtiradi; siyosiy gazetada xalq tilning barcha xususiyatlarini aks ettirishga olib keladi. Bu bir tomondan gazetani ommaga yanada yaqinlashtiradi, siyosiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish borasida ularga ko‘mak va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi bir maslahatchiga aylantiradi; ikkinchi tomondan xalq tilining muhim xususiyatlarini butun yozuv tizimiga singib borishi va shu tariqa adabiy til me‘yorining barqarorlashtirishga, og‘zaki va yozma nutqni bir-biridan farqlay bilishga imkoniyat hozirlaydi, ularni gramatik jihatdan yaqinlashtirishga sharoit yaratadi.

Siyosiy publitsistika hayotning, inson faoliyatining barcha sohalarini aks ettirishi tufayli unda nutqning turli ko‘rinishlari, turli janrlar, turli uslublar, jumladan, ilmiy, badiiy, rasmiy-idoraviy, ijtimoiy-siyosiy uslubiyatga oid vositalar ishtirok etsa-da, kundalik muomala jarayonida ishlatiluvchi oddiy, ommabop nutq vositalari ham ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham siyosiy gazeta mana shunday amaliy jarayonda xalq nutqining muhim xususiyatlarini ham yozma nutqqa singdirib, adabiy til rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

Hozirgi siyosiy gazeta materiallarning mazmun doirasi kengaydi, shaklan jozibasi ortdi, texnik jihatdan takomillashdi, ifoda usuli ravonlashdi. Endilikda bu gazetalar mazmunan serqirra, siyosiy o‘tkir, texnik jihatdan mukammal, til jihatdan ommabon holatda va xalqaro formatga muvofiq holatga keldi.

### **SO‘Z VA IBORALARNI QO‘LLASH**

Yozma nutqning boshqa shakllari kabi siyosiy nashr materiallari tili ham doimo taraqqiy etib boradi. Bu taraqqiyot, eng avvalo, gazeta tilining leksikasida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Istiqlol davrida o‘zbek tili, jumladan, ijtimoiy-siyosiy gazeta tili ham har tomonlama ravnaq topdi. Jamiyat taraqqiyoti, insoniyat tafakkurining rivoji natijasida yaigi so‘zlar, atamalar, iboralar paydo bo‘ldi. Gazeta tilidagi bu taraqqiyot eng avvalo, o‘zbek tilida asrlar davomida qo‘llanib kelayotgan mavjud vositalarning faollashishi, tilimizning o‘z ichki imkoniyatlari asosida vujudga keldi. Ayni chog‘da, extiyoj natijasida bunday yangi vositalar rus tili va ingliz(chet) tilidan va boshqa qardosh xalqlar tillaridan kirib keldi.

Til taraqqiyotining ichki va tashqi omillari asosida vujudga kelgan nutq vositalari hayot talabiga, jamiyat talabiga mos kelmaydigan leksik vositalar o‘rnini almashtiribgina qolmay, balki voqeligimizda paydo bo‘layotgan yangi-yangi tushunchalarni aniq va ixcham tarzda ifodalaydi. Chunki yangilik har doim eskilikka qarshi kurashda shakllanadi, toblanadi va rivoj topadi. Ba‘zan so‘zlarning yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalashga qurbi yetmay qoladi yoki ijtimoiy formatsiyalar o‘zgarishi bilan faqat o‘sha davrga xos voqealarni anglatgani uchun iste’moldan chiqib ketadi. Shu tariqa tilda sifat o‘zgarishini

anglatuvchi yangi qatlamlar yuzaga keladi va u insoniyat tafakkurining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Kelib chiqishi jihatidan qaysi tilga mansubligidan qat'iy nazar ming yillardan buyon qo'llanib, o'z so'zlarimiz bo'lib o'zlashib ketgan ayrim so'zlarning qo'llanishini jamiyat taraqqiyoti tarixi bilan bog'lab izohlash lozim. Til ham jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda o'z imkoniyatlari asosida rivojlanmoqda. Ma'lum tushunchalarni ifodalash uchun ona tilimizni muvofiq va munosib nutq vositalari bor ekan, ularning matbuotimizda ishlatilishi tabiiy suratda tasvirga singib ketayotgan ekan, buni ma'qullash lozim. Ayniqsa, bunday so'zlarning qo'llanishi ma'lum funksional-stilistik maqsadlar uchun ham nihoyatda zarur. Masalan, loyiha – проект, yo'l/usul – стратегия, omil – фактор, me'morchilik – архитектура, anjuman – конференция, nazm/she'riyat – поэзия, nasr – проза, dastgoh - станок, ko'rgazma – выставка kabi leksik dubletlar o'zlarining ma'lum funksional-stilistik vazifa bajarishi tufayli, bu so'zlarning har qaysisining hayotda, tilimiz doirasida o'z o'rnini borligi tufayli endilikda gazetalarimizda faol qo'llanmoqda. Ona tili boyligidan bunday o'rinli foydalana bilish ayni vaqtda har qanday gazetaning ta'sirchanligini oshiradigan, nashrning omma orasida keng yoyilishiga imkon beradigan omillardan bo'lib qoladi.

Siyosiy gazeta tili so'z turlari, gap turlari ularining funksional tiplari, stilistik rang-barangligini keng izohlash uchun yetarli material bera oladigan boy manba xisoblanadi. Chunki unda rasmiy nutqining barcha xususiyatlariga oid material mavjud. Hozirgi kunda matbuotimizda ishlatilayotgan juda ko'p internatsional so'zlar borki, bular gazetalarimiz leksikasining butun bir qatlamini tashkil etadi. Masalan, “innovatsiya”, “modernizatsiya”, “tendensiya”, “konsepsiya”, “kadr”, “kapital”, “info”, “selektor”, “trikotaj”, “firma”, “analiz”, “menejer”, “konsultant”, “diplomat”, “memorandum”, “miting”, “interaktiv”, “prezintatsiya”, “rezident”, “portal”, “avtodrom”, “aerobus”, “dron”, “planshet”, “skuter”, “rayosat”, “transport”, “prezidium”, “novator”; “meliorator”, “koordinator”, “turizm”, “ekoturizm”, “professional”, “demokratiya”,

“investitsiya”, “kredit”, “petitsiya”, “internet”, “onlayn”, “sertifikat” va hokazo. Bulardan bir qismi ommalashib, stilistik neytrallashib tilimizga singib ketgan bo‘lsa, ikkinchi bir qismi, ya’ni tor sohadagi ilmiy tushunchaga oid so‘z, termin va iboralar o‘sha sohaga oid materiallarda qo‘llaniladi.

Siyosiy gazetalarimiz tilini ilm-fan, xususan, kimyo, texnika, astronomiya, meditsina, paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, pillachilik, gaz, neft, oltin va boshqa sohalarda ishlatiladigan so‘z, termin va iboralarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Lekin bunday so‘z, termin va iboralarning anchaginasini turli tor sohaga oidligi uchun asosan maxsus materiallardagina va nixoyatda zarur o‘rinlardagina ishlatiladi. Masalan, qishloq xo‘jaligiga oid terminlar, paxta, g‘alla va chorvaga oid leksik vositalar shu sohalarga doir materiallarda, tahliliy, xisobot va qishloq xo‘jaligi siyosati nutqlarida ostida beriladigan maqolalarda qo‘llaniladi. Lekin tor sohadagi ilmiy tushunchaga oid so‘zlar, termin va birikmalar, avvalo, shu maqolalarda ham nihoyatda kam ishlatiladi. Chunki keng ommaga mo‘ljallangan gazeta nutqi adabiy normalarga mos holda, siyosiy gazeta bo‘lsada hammabop bo‘lishi lozim. U tor sohaga oid terminlar, professionalizmlar, chet tili so‘zlaridan iloji boricha qochishga, ularni kamroq qo‘llashga harakat kilishi kerak. Ba’zi o‘rinlarda ularning uyadoshlik xususiyatiga ko‘ra umumiy nom bilan keltiriladi. *“Yosh fermerlar hamda fermerlikka qiziquvchi yoshlarning bog‘dorchilik, sabzavotchilik, asalarichilik sohalaridagi zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarni ular faoliyatiga joriy etish, ilg‘or fermerlarning tajribalarini ommalashtirish, ularni yosh olimlar bilan kooperatsion aloqalarini aloqalarini ta‘minlash nafaqat fermerlik, balki tomorqa xo‘jaligida ham mahsulot yetishtirishni yanada oshirish maqsadida “Yosh fermerlar” o‘quv tajriba uchastkasini tashkil etish loyihasi ishlab chiqildi”* (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 84-son).

Keltirilgan bu misollardan ko‘rinib turibdiki, maqolalar ham siyosiy, ham ommabop uslubning talablariga muvofiq holda berilgan. Chunki ommabop maqolalar keng gazetxonlar ommasining did va talabiga mos, xalq tili



boyligidan unumli va o‘rinli foydalangan holda yozilgap bo‘lgani uchun ham u xalq ruhiga singib keta oladi. Shuning uchun ham siyosiy publitsistika ayrim o‘rinlarda ommaboplikni ham saqlab qolishni talab qiladi. Tabobat ilmiga oid bu parchalarning o‘ziga xosligi, eng avvalo, aniqlik va oddiylikdir. Jumladlarda birorta ortiqchalik, murakkablik uchramaydi, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘z ham yo‘q. “Yoshlar ovozi” gazetasining 2017-yil 80-sonidagi “Davolashdan oldini olish afzal” maqolasidagi ishlatilgan 548 so‘zdan 23 tasi tibbiyotga oid (18 so‘z va 5 birikma). Ammo, bularning bir qismi, masalan “kasal”, “dispanser”, “profilaktika” kabi so‘zlar tibbiyotga oid bo‘lsa-da, hozir vazifa va qo‘llanish doirasi juda kengayib ketgan. Shuning uchun, garchi bu so‘zlar maqolalarda tibbiyotga oid tushunchalarning anglatgan bo‘lsa-da, turli sohada qo‘llanadigan, hammaga tushunarli nutq vositalari hamdir. “Og‘riq”, “sog‘liq”; “nogiron”, “dorishunos”, “jarroh”, “shamollash”, “kasal bo‘lmoq”, “og‘ir kasal”, “homiladorlik”, “xastalik” kabi so‘z va atamalar xalqda avvaldan bor. Parchalardagi “patronaj”, “profilaktika”, “dispanser”, “UTT”, “EKG”, “saniteriya”, “vrach” kabi so‘z va iboralar, internatsional so‘zlar tibbiyot sohasiga oiddir. Lekin ular ham hozir ko‘pchilikka tushunarli. Ammo, stilistik-funksional jihatdan tibbiyot sohasiga xoslangan. Bularning xalqqa keng tarqalishida, faollashuvida gazeta yetakchilik qiladi. Siyosiy nashrdagi bu so‘z va iboralarning barchasi tibbiyotga oidligini ko‘rsatuvchi belgilardandir. Demak gazeta ma‘lum sohaga oid maqola berganda mana shu tarzda ommaviylikni asosiy omil qilib qarashi siyosiy materialdagi rasmiy, ilmiy tushunchani ommabop usulda aniq va oddiy ifodalashi lozim. Tor sohadagi terminlarning ma‘lum darajada cheklangan tarzda ishlatilishini esa mana shu ommaviy kommunikatsiya uslubining o‘zn taqozo etadi.

Demak, siyosiy gazetaning asosiy vazifalaridan biri ommaviylik voqelikni kundalik nutqimiz yordamida hammabop qilib ifodalash bo‘lgani uchun ham unda tor doiraga xos leksik vositalar kam ishlatiladi, keng xalq ommasiga tushunarli bo‘lgan nutq vositalari esa asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki gazetaning yetakchi uslubi, siyosiy yo‘nalish va mavzuni qamrab olgan bo‘lsada

voqelikni aks ettirishdagi asosiy xususiyati xalqchilik, ommaviylikdir. Voqeani oddiy, ommabop, kundalik hayotimizda ishlatiluvchi leksika yordamida ifodalash ommaviy kommunikatsiyaga asoslangan gazeta tilining muhim xususiyati hisoblanadi. Mana shuning uchun ham boshqa sohalarga oid termin va iboralarining ma'lum darajada cheklangan tarzda ishlatilishini ana shu ommaviylik uslubining o'zi taqozo etadi.

Umumxalq tili bilan individual nutq o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, ularni umumlashtiruvchi, bir nuqta atrofiga uyushtiruvchi omil – markaz ham bor. Bu xalq tilidir. Har ikki xil hodisa umumxalq tili neologizm va individual nutq neologizmi bir material asosida – umumxalq tili materiali asosida yaratiladi, umumxalq tili qonuniyatiga tayanadi, ehtiyoj natijasida yuzaga keladi, mazmuni aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Lekin individual nutq neologizmi faqat o'sha muallif asarlarida mavjud bo'lib, o'rin va vaqti bilan ularning ayrimlari individual ijod doirasidan chiqib, umumxalq tili materialiga, umumxalq tili boyligiga aylanishi mumkin. Endilikda bu iboralar zahirida ko'plab yangi birikmalar, iboralar yuzaga kelyapti va bular gazetalarimizda faol ishlatilayapti:

“Yoshlar ovozi” gazetasining “Asliyatdan tarjima”, “Yoshlik ilhomi”, “Siz nima deysiz?”, “Bugunning gapi”, “Kitob javoningizga”, “Mening fikrim”, “Mulohaza uchun mavzu”, “Dolzarb mavzu”, “Luqma”, “Ibrat” kabi ruknlaridagi materiallar, ayniqsa, gazetalarimiz so'zlashuv nutqi vositalarini yozma nutqda ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan ruknlardagi materiallar avvalo siyosiy tafakkurni, ijtimoiy faollikni hamda adabiy til taraqqiyotini anglatadi. Bu yangi birikmalarga xos xususiyatlar: oz so'zda keng mazmuni ifodalash, bu ifodaning esa aniq, mantidan asosli ekanligi, tilimiz qonun-qoidalari asosida yaratilayotgani uchun mavjud nutq vositalari bilan uyg'unlashib, tasvirga singib ketishidir. Ixchamlik, aniqlik, mantiqiylik har sohada ham zarur. Lekin gazyotaning dolzarb masalalarini muhokama qilishi, hozirjavoblik kabi

xususiyatlari uning ifoda materiali borasida ham doimo izlanishda bo'lishini taqozo etadi.

Fikrni aniq, ixcham ifodalaydigan, tasvir mantiqini kuchaytiradigan, gazetani omma bilan yaqinlashtiradigan omillardan biri maqol va iboralardir. Nutq vositalarining bu turi asrlar davomida qo'llanib, xalqimizning hayotiy tajribasini mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham bularning barcha turdagi gazetada qo'llanish xalq donoligini, xalq ruhini namoyon etadi, kichik tasvirda katta mazmunni ifodalashga imkon yaratadi.

Maqol va iboralariing gazetada qo'llanishida quyidagi muhim xususiyat ko'zga tashlanadi:

Maqol yoki iborani aynan, o'zgarishsiz qo'llash, ular ifodalayotgan voqelik va kontekst taqozosiga ko'ra tuzilish yoki mazmun tomondan o'zgartirib ishlatish. Muhimi shundaki, har ikki holatda ham maqol va ibora mazmunning aniq va ixcham ifodalanishiga hizmat qiladi.

*“Ota-bobolarimiz bejiz “bolaning begonasi bo'lmaydi”, “bir bolaga yeti mahalla ota-ona” demagan” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 66-son); “Xalqimizda “qadrlagan – qadr topar” degan naql bor. Xotirlash esa hayotdan ko'z yumganlarni eslashva ularning haqiga xayrli duolar qilishdir” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 68-son)*

Demak, maqol va ibora siyosiy materialni ham mazmun jihatdan yanada faollashtiradi. Shu tariqa ular gazetada qo'llanayotgan boshqa nutq vositalari bilan uyg'unlashib, kontekstga singib ketadi va ifodalanayotgan voqelikning muhim xususiyatini bo'rttirib, fikrni alohida uqtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ular gazetaning o'z o'quvchilari bilan yanada yaqinlashishiga hissa qo'shadi.

Ma'lumki, gazeta nutqi bajaradigan vazifasiga ko'ra ikki xususiyatga ega: birinchidan, biror voqea-hodisa haqida axborot beradi; ikkinchidan, ifoda zamirida ta'sirchanlikni mujassamlashtiradi, ya'ni ilmiy termin bilan aytsak, gazeta tili informativlik va ekspressivlik xususiyatlariga ega. Axborot berish xususiyati asosan xronikalarda, rasmiy xabarlarda, idoraviy uslubdagi

materiallarda yetakchi. Bu materiallar ifodasida ishlatiluvchi nutq vositalari ko‘pincha tayyor, tez-tez takrorlanib turadigan so‘z va iboralar bo‘ladi. Masalan: *“Poytaxtimizda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi muassisligidagi yangi nashr – “Dugonalar” jurnalining taqdimoti bo‘lib o‘tdi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 47-son)* va shu kabilar.

Bunday materiallardagi nutq vositalariga individual ijod nuqtai nazardan yondoshib, ularga sinonimlar topishga urinishning keragi yo‘q.

Ekspressivlik (ta‘sir qilish) esa, shubhasiz ana shu axborot funksiyasi bilan bog‘liq. Chunki, gazeta biror voqea-hodisa haqida xabar berar ekan, buning zamirida ta‘sirchanlni ham mujassamlashtiradi - voqea ifodasi gazetxonga ta‘sir etadi: uni voqeaga ishontiradi: Demak, xronika, rasmiy xabarlar ifodasi asosan informativlik (axborot berish) dan iborat bo‘lsa, boshqa xil materiallarda gazeta tilining ikki xil xususiyati - informativlik va ekspressivlik uyg‘unlashib ketadi, bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bularning o‘ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, tasvirda nutq vositalarining informativlik funksiyasi ustiga yana qo‘shimcha vazifa (gazetxonga ta‘sir kilish vazifasi) yuklanadi. So‘zlarga, birikmalarga, gaplarga ana shu qo‘shimcha funksiyani yuklash murakkab ishdir. *“Yoshlar ovozi”* gazetasining 2018 yil 43-sonidagi *“Jamoatchilik nazorati: Odamlarning taqdiri o‘yinchoqmi?”* sarlavhali maqoladan bir parcha keltiraylik:

*“El g‘amida yashash oson emas, boshog‘riq ko‘payadi, halovating yo‘qolishi tayin. Ammo davlat qudug‘idan suv ichayotgan kata-kichik amaldorlar hadeb shu yo‘sinda mulohaza yuritaversa, boshqacha qilib aytganda, o‘sha davlatning o‘ziga-da hiyonat qilsa, rivojlanish bo‘ladimi?! E yo‘q birodar, ayni boqibeg‘am bo‘lib yurish yaramaydi”.*

Siyosiy gazeta tilining muhim xususiyatlaridan biri uning aniqligi va rasmiy tUSDagi oddiyligidir. Shu bilan u ommaviylikka erishadi. Demak, gazetaning asosiy vazifasi ommaviylik, voqelikni kundalik nutqimiz yordamida hammabop qilib ifodalash holati ham mavjud bo‘lgani holda, unda tor doiraga xos leksik vositalar kam ishlatiladi, keng xalq ommasi va siyosiy auditoriyaga

tushunarli bo‘lgan so‘zlar, iboralar esa har doim yetakchi o‘rinda turadi. “Davlatimiz rahbari xalqni boqayotgan, boy qilayotgan insonlarni boshida ko‘tarib yurishga tayyorligini ko‘p bora takrorlaydi. Biz, yoshlar shunday ishonchni qadrlab, yurt koriga labbay, deyishga tayyormiz!” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 101-son) va hokazo.

Keltirilgan parchalarda so‘z qo‘llanishi ham, jumla tuzilishi ham aniq, oddiy na ravon.

So‘zlar qalamga olingan voqelik ifodasi, eng dolzarb masalalar ifodasiga mos holda tanlanganda, tasvirning ta’sirchanligi ortadi. Har bir so‘z va iboraning siyosiy ruh kasb etishiga, chinakam chaqiriq vositasiga aylanishiga imkon yaratiladi. Siyosiy publitsistika tilida ta’sirchanlik turli usullar bilan yuzaga keladi. Masalan, ba’zan og‘zaki va yozma nutq vositalarining uyg‘unlashuvi, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga ham turli iboralar, yangi hikmatlar zamiridagi obrazlarning borliqdagi mavjud narsalarga qiyoslab berilishi va bular yordamida fikrning aniq yuzaga chiqishi. Misolga murojaat qilaylik:

“Tarbiya taqani to‘g‘iraydi ammo bu ishda ma’naviy rag‘bat ham kerak” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 85-son)

Barcha turdagi gazeta kabi siyosiy nashr doimo, zamon bilan birsa nafas, oladi. U eng dolzarb, eng muhim voqealarni paysalga solmay hozirjavoblik va siyosiy tasvir bilan operativ yoritib boradi. Ularga munosabat bildiradi, baho beradi.

Aytish kerakki, fikrni voqelik alomatlarini bilan asoslab, qiyoslab ifodalashning yillik yozma adabiyotimizda muhim o‘rin tutib kelgan bo‘lsa-da, lekin bu holat asli xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyat. Demak, yuqorida keltirganimiz misollardagi obrazlar ifodasida xalq nutqiga xos an’ana ham namoyon bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, gazeta uchun nutq vositalarini tanlashda tildan tashqari holatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, axborot janrining asosiy vazifasi biror voqea-hodisa haqida xabar, ma’lumot berishdir. Feletonning vazifasi ijtimoiy-publitsistik uslubda, dalillar, harakatlar, ishlardagi nuqsonlarni

tahlil etib, tanqid ostiga olish - xajv etish; ocherk esa hayotii badiiy publitsistika uslubida aks ettiradi. Nutq vositalari ana shu janrlarga qarab tanlanadi.

Shu nuqtai nazardan siyosiy gazeta janrlari uchun soʻzlarni, xatto soʻz elementlarini (masalan, qoʻshimchalarni) tanlashning muhim omillaridan biri jurnalistning ifoda obʻektiga munosabatida mujassamlashadi. Tasvir yakka shaxsga ondmi, bir guruh kishiga qaratilganmi yoki koʻp millionli gazetxonga moʻljallanganmi – bular nutq vositalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Demak, nutq vositalari janr xususiyatlariga, ifoda obʻekti taqozosiga koʻra tanlanadi.

### **SIYOSIY GAZETA TILIDAGI AYRIM SINTAKTIK HOLATLAR**

Siyosiy yoʻnalishdagi gazeta tili grammatik jihatdan ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Albatta, gazeta nutqi xalq tilining grammatik qonun-qoidasiga asoslanadi, shunga tayanadi. Lekin undan foydalanishda oʻsha oʻziga xoslikka amal qilinadi. Bir holatga eʼtibor beraylik: istqlol davrida oʻzbek tilida gap qurish usullari yanada takomillashdi. Masalan: “Yoshlar ovozi” gazetasining soʻnggi yillardagi sonlarini koʻzdan kechirganimizda gazeta nutqida xalqning, xususan yoshlar didi va talabiga mos ravishda aniqlik, oddiylik, ixchamlik yetakchi xususiyatlardan ekanligini koʻramiz. Biri necha sarlavhalarni keltiraylik: “Hamma gap muammoning yechimida” (2017-yil 65-son), “Yaxshi fazilatlar mutolaadandir” (2017-yil 77-son), “Bandlik – doimiy daromad” (2017-yil 84-son), “Eʼtibor talab darajasida” (2018-yil 52-son), “Oyogʻimiz yerdan uzilmasa, boshimiz koʻkka yetadi” (2018-yil 23-son). Gazetalarimizga hozir ham shunday sarlavhalar qoʻyish mumkin. Bunday targʻibotchi, chaqiruvchi va ijtimoiy-siyosiy faolikka chorlovchi jumlar siyosiy publitsistikaga xosdir.

Vaqt oʻtgani sayin bilan til ham tobora rivojlanib bormoqda: birinchidan, tilda mavjud taraqqiyot tendensiyalari kuchayadi; ikkinchidan, yangi tendensiyalar paydo boʻladi. Bunda birinchi omil yetakchi rol oʻynaydi. Bu ikki faktorning oʻzaro aloqasi esa sinonimik qatorlar va dubletlar doirasida yangi

differenziatsiyalanish va yangi stilistik aloqalarga olib keluvchi murakkab holatlarni keltirib chiqaradi.

Gazetalar tahlilida tilimizdagi hozirjavoblik bilan tez, aniq va to'g'ri javob berishga moslashtirilgan ixcham jumlar, elliptik gaplar juda ko'p ekaniga guvoh bo'lamiz: "G'oyani bo'lishing" (2017-yil 64-son), "Kollejdan korxonaga" (2017-yil 71-son), "Suhbatdan sayohatga" (2018-yil 44-son), "Kel, tanish, tanla" (2018-yil 32-son), "Maqsad sari olg'a" (2017-yil 103-son). Bu jumladagi ixchamlik gazetalarda ularning qo'llanish darajasini ancha kengaytirgan. Natijada bulardan bir qismi o'zlarining variant shakllaridan ajralib chiqib ma'lum qolipga kirib qolgan. Bunday qurilishdagi gaplarning aksariyati tilimizda uzoq vaqtlardan buyon qo'llanib keladi. Hozir ham og'zaki va yozma nutqimizda keng qo'llanadi. O'zbek tilida mavjud bu hodisalar asrlar davomida asta-sekinlik bilan vujudga kelgan. Bunda tilning ichki imkoniyati yetakchi rol o'ynagan. Jamiyat taraqqiyoti, o'zbek xalqlari tillarining, ayniqsa, hududiy jihatdan qo'shni bo'lgan xalqlar tillarining o'zaro ta'siri natijasida bunday konstruksiyalar yanada takomillashdi; ularning voqelikni ifodalash imkoniyati kyongaydi. Bu esa ot boshqaruvli konstruksiyalarning yanada faollashuviga, konstruksiyalarda ayrim o'zgarishlar yasashga olib keldi. Ammo bunday o'zgarishlar periferik xarakterdadir (gapning o'zagiga – asosiy modeliga ta'sir etmagan holda ro'y beradi). Shuning uchun ham bunday holatlarni tilimizda avvaldan qo'llanib kelayotgan konstruksiyalarning taraqqiyoti tarzida qaramoq lozim.

Publitsistikada gap qurish sistemasining takomillashib borayotganligini, gazeta tilining yanada mukammallashib borayotganligini ko'rsatadi. Hozirgi gazetalarimizda qo'shma gap sodda gapga nisbatan kam qo'llanadi, sodda gap esa ko'p qo'llanadi. Sodda gapning ko'p ishlatilishini ta'minlagan omillardan biri xalq og'zaki nutqi xususiyatlari aniqlik va ixchamlikka intilish bo'lsa, yana biri turli fe'l shakllarining faollashuvi, ayniqsa, sifatdosh, ravishdosh oborotlar, uyushiq bo'laklar va turli leksik-grammatik vositalar vazifasining kengayishidir.

Misol: “Yoshlar ovozi” gazetasining 2017 yil 90-sonidagi “Harakatlar strategiyasi –yangilanish mezon” maqolada 11 ta gap bor. Bulardan 3 tasi sodda, 8 tasi qo‘shma gap. Shu gazetaning 2017-yil 80-sonidagi “Dunyoni asrash qayg‘usi” nomli bosh maqolasida 37 ta gap bo‘lib, bulardan 29 tasi qo‘shma, 8 tasi sodda gapdir. Mana shu 19 sodda gaplarning 5 tasi sifatdosh oborotli, 10 tasi ravishdosh oborotli, 4 tasi uyushiq bo‘lakli gaplardir.

Bir necha sodda gap komponentlarining ba’zi xususiyatlari bilan tanishamiz: ““Yoshlar poyezdi” targ‘ibot aksiyasi doirasi 60 ta tadbir tashkil etilib, jami 57 ming 895 nafar yigit-qiz jalb qilinadi”. (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 84-son). Bu gapda aniqlovchi va sodda hollar uyushib kelgan. Ular targ‘ibot aksiyasi va yoshlar ishtiroki jarayonini har tomonlama xarakterlab, fikrning aniq, tasvirning mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi.

“Bugun yurtimizda dehqonchilik madaniyatini oshirishga kata hissa qo‘shib, ishlab chiqarishda yuksak natijaga erishayotgan, o‘z faoliyati bilan barchaga namuna bo‘layotgan fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari ko‘plab topiladi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 86-son).

Uyushib kelgan sifatdosh oborotlar va bir ravishdosh oboroti gapdagi egani turli tomondan xarakterlab, uning ahamiyatini to‘laroq, kengroq izohlashga xizmat qilyapti.

Mazkur gazetada turli xil ko‘rinishdagi, turli uslubdagi rang-barang sodda gaplarni uchratish mumkin: “Oliy martabali mehmon hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo‘lgan Mustaqillik va ezgulik monumentiga gul qo‘yildi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 24-aprel).

“Bugun oynadek yaraqlab, ko‘zni qamashtiraduga yo‘llar Istiqlol sharofatidir” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 70-son);

“Ajdodlarimiz xotirasini shod etib, yurt tinchligi va el farovonligini ta‘minlashni o‘zining burchi deb bilgan, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgan xalqimiz ko‘zlagan manzillar, shak-shubhasiz, nurlidir” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 73-son).



Misollardagi jumalarning ixchamligi va cho‘ziqligi ham, konstruksiyalar ham, uyushiq bo‘lakli va oborotli jumlar ham - hammasi bajaradigan vazifasi jihatidan tasvirga mos qurilgan.

Biz yuqorida siyosiy gazeta tilida ba’zi o‘rinlarda qo‘shma gapga nisbatan sodda gap ko‘pligini ta’kidladik. Bu gazeta tilining grammatik qurilishi asosida tahlillardan ko‘ringan mavjud holatdir. Lekin aslida siyosiy gazeta tili leksik va grammatik jihatdan murakkab tuzilishga ega jumlar asosida, qo‘shma gap formatidagi gap qurilishlaridan tashkil topadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sodda gap konstruksiyasida, yuqorida ta’kidlangandek, bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Bu gazeta tilida yaqqol ko‘rinayapti. Lekin ularni, jumladan sifatdosh va ravishdosh oborotlarni, yoyiq konstruksiyalarni myo‘yoridan ortiq ishlatib, jumlaning murakkablashtirishga yul quymaslik lozim. Chunki jumlaning murakkablashuvi fikrni noaniqlikka olib keladi, nutq vositalariga yetarli e’tibor berilmaganligini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida gazetaning ta’sir kuchini susaytiradi.

Yana bir jihat borki, siyosiy gazetada ba’zan uyushiq bo‘laklar, turli oborotlarni qatorlashtirib ishlatish oqibatida jumlar shu qadar cho‘zilib, murakkablashib ketadiki, gapning bosh qismidagi mazmun gapning oxiriga yetguncha gazetxonning esidan chiqadi. Bir misol:

“Shuningdek qarorda, nashriyotlar faoliyatini tubdan modernizatsiya qilish, ularning samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan imtiyozlarni ko‘paytirish, hududlarda ayniqsa qishloq joylarida kutubxonalar barpo etish va ularga malakali mutaxassislar tayyorlash, chop etilgan kitoblar saviyasi va sifati, adadi va narxini jiddiy nazoratga olish yuzasidan bir qator vazifalar belgilanganki, bularning bari mamlakatimiz aholisining kitob va kitob mahsulotlariga bo‘lgan kata ehtiyojini qondirishga, yoshlarimiz tarbiyasini yanada kamol toptirishga, ularni tuli yot g‘oya va ta’sirlardan ehtiyot qilishga zamin yaratadi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 77-son)

Ancha keng shakldagi bunday jumlaning bir necha gapga bo‘lib berish ma’qul. Gap sodda yoki qo‘shmaligidan qat’i nazar, ixcham bo‘lishi kerak.

Jumlani o‘ta murakkablashtirishga yo‘l quymaslik lozim Aniq va ixcham qurilgan gap fikrni yorqin ifodalaydi. Binobarin, gazetaning siyosiy ruhda bo‘lsa-da ommaviylik vazifasi va xususiyati ham shuni taqozo etadi.

Shuningdek, tadqiqot obyekti bo‘lgan siyosiy nashr tilining faqat bir xususiyati: ko‘rinishi va qurilishi jihatidan bir xil bo‘lib qolgan, gazetadan gazetaga o‘tib, takror qo‘llanib turadigan iboralar haqida to‘xtalmoqchimiz.

Gazeta tilida ikkinchi tomon ta’sirchanlikni ta’minlovchi xususiyat ham mavjudligini tadqiqotchilar ko‘rsatib o‘tishgan. Xaqiqatan ham “rasmiy tashrif bilan”, “qaror qabul qilindi”, “hujjat/memorandum imzolandi”, “chora-tadbirlar belgilandi”, “amalga oshirmoq”, “rejalashtirmoq”, “amaliy yechim topildi”, “tadbir o‘tkazildi”, “ta’kidlab o‘tmoq”, “islohotlar natijasida”, “sohani rivojlantirish”, “mamlakatimiz taraqqiyoti”, “yoshlarga qaratilgan yuksak e’tibor”, “yaratilgan imkoniyatlar”, “muhim vazifa hisoblanadi”, “hukumatimiz tomonidan”, “joriy yil”, “soha vakillari/mutasaddilari”, “oshirish/kuchaytirishga xizmat qilmoq” va h.k. kabi birikmalar, juda ko‘plab iboralar ham mavjud. Mana shu ikki tomonning birlashmasi gazeta tilining negizini tashkil qiladi.

Bunday standart konstruksiyalarni tuzilish jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin: a) gapga teng konstruksiyalar; b) birikmaga teng konstruksiyalar.

Standart vositalarni bu tarzda ikkiga ajratish komponentlarning soniga ko‘ra emas, balki ularning gapdagi funksiyasiga ko‘radir. Negaki, birikmaga teng ayrim iboralar 8-10 so‘zdan iborat bo‘lgani holda, gapga teng ba’zi iboralar 3-4 so‘zdan tuzilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bularning birikma yoki gap holidagi xususiyat va funksiyalari qat’iy emas. Turli morfologik ko‘rsatkichlar yordamida ularniig funksiyasi almashib turadi. Demak, bunday holatlarda sintaktik funksiyaning belgilanishida turli morfologik ko‘rsatkichlar katta rol o‘ynaydi. Standart konstruksiyalarning gapdagi funksiyasi ikki xil: ularning gapga xos xususiyatini ro‘yobga chiqarishda, gap bo‘lib kelishini ta’minlashda fe’lning shaxs va zamon qo‘shimchalarining roli katta. Shu qo‘shimchalar qo‘llanilmasa, konstruksiyalar ko‘pincha boshqa qo‘shimchalar va ko‘makchilar yordamida so‘z birikmasi bo‘lib keladi.

Daslab gapga teng konstruksiyalar xaqida to‘xtaylik: “...chora-tadbirlar belgilangan” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 95-son), “...munosib hissa qo‘shdilar” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 79-son), “yuqori natijalarga erishdilar” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 78-son), “...amalga oshirish ko‘zda tutilgan” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 61-son), “...tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 56-son). Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi konstruksiyalar uch zamonga ham mos harakat va holatni ifodalayapti. Konstruksiyalarning gap bo‘lib kelishini ta‘minlagan shaxs-son va zamonga xos turli fe‘l ko‘rsatkichlari gaplarning shu xizmatini yuzaga chiqarishda katta rol o‘ynayapti. Ana shu morfologik ko‘rsatkichlar sintaktik holatni yuzaga chiqarishi va funksiyani ta‘minlashi bilan xizmati kattadir.

Gazetada ishlatiladigan, so‘z birikmasiga xos funksiyani o‘taydigan va xususiyatni ifodalaydigan standart konstruksiyalar ko‘rinish jihatidan xilmaxildir.

-sh, -ish qo‘shimchalari bilan shakllangan, turli ko‘makchilar va ko‘makchi o‘rnida qo‘llangan so‘zlar yordamida ishlatiluvchi konstruksiyalar; ot so‘z turkumlari tarzida qo‘llanuvchi standart konstruksiyalar; ravishdosh va sifatdosh oborotlari shaklida qo‘llanuvchi standart konstruksiyalar.

-sh, -ish qo‘shimchalari yordamida shakllangan standart konstruksiyalar, boshqa standart konstruksiyalar kabi, tasvir etilayotgan voqeani ixcham ifodalash uchun katta qulaylik beradi: “faol ishtirok etishini ta‘minlash” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 47-son), “tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 45), “huquq va majburiyatlarini tushuntirish”, “zarur sharoitlarni yaratib berish” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 76-son), “huququy-tarbiyaviy ishlarni/chora-tadbirlarni amalga oshirish” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 75-son);

sh, -ish bilan shakllangan bunday konstruksiyalar, jumlada gapning turli bo‘lagi vazifasini bajarib keladi. Bu standart konstruksiyalar, xuddi yuqorida keltirilganidek, deyarli o‘zgarmaydigan doimiy qurilish va komponentlarga ega. Tasvirning taqozosi bilan ba‘zan konstruksiyaning oldidan yoki keyinidan turli

soʻzlar qoʻshilib keladi. Lekin bunday soʻzlar standart konstruksiyalar tarkibida doimiy oʻrnashib qolmaydi, ammo oʻsha tasvirda standart konstruksiyaning stilistik xususiyati va sintaktik funksiyasiga oʻsha soʻzlarning taʼsiri ham bor.

Konstruksiyalar tarkibida doimiy oʻrnashib qolgan soʻzlar ham baʼzan sinonimlari bilan yoki sintaktik-stilistik xususiyatlari jihatidan yaqinlashadigan soʻzlar bilan almashib turishi mumkin: “imkoniyatlardan oqilona foydalanish” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 72-son) konstruksiyasidagi “oqilona” soʻzini oʻrni bilan “unumli”, “samarali”, “oʻz vaqtida” kabi soʻzlar bilan almashtirib ishlatish mumkin.

-sh -ish bilan yasilib, turli koʻmakchilar va koʻmakchi oʻrnida qoʻllangan soʻzlar yordamida ishlatiluvchi konstruksiyalarning chegarasini aniqlash baʼzan ancha qiyin koʻrinadi. Bu hol standart birikmalar uyushib kelganda, ayniqsa, yaqqol seziladi. Lekin konstruksiyalarning asosiy qismi anglashilib turadi. Masalan: “Yosh ijodkorlar asarlarini chop etish, madaniyat va sanʼat vakillarini moddiy qoʻllab-quvvatlash, kadrlar mahoratini oshirish sohasida qator masalalar atroflicha muhokama qilindi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 70-son). Keltirilgan bu misolda oʻnta standart birikma mavjud boʻlib, xammasi ham “sohasida” soʻzi bilan boshlanadi. Bu aniq narsa. Ayni paytda quyidagicha koʻrinishli konstruksiyalar ham borki, garchi uning doimiy koʻrinishi aniq boʻlsa-da, koʻmakchi soʻzning qoʻshilishi birikmaning chegarasi va funksiyasini aniqlash borasida diqqatni talab etadi.

Ot birikmalar xarakteridagi standart konstruksiyalar boshqa tipdagi standart konstruksiyalardan eng avvalo komponentlarining nisbatan kamligi, tuzilish jihatidan ixchamligi bilan ajralib turadi: “xalqaro doʻstlik aloqalari” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 74-son), “Kamalak”ning yangi aʼzolari” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 77-son), “mexnat unumdorligi”, “milliy xayriya aksiyasi” (“yoshlar ovozi” 2018-yil 41-son), “Siyosiy vaziyat”, “Kitobxonlik targʻiboti” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 43-son) va boshqalar.

Bu xil standart konstruksiyalar koʻrinishi va tuzilishi, fikrni ifodalash xizmati jihatidan qisman ijtimoiy-siyosiy terminlarga oʻxshab ketadi. Lekin biz

bu o'rinda yuqorida keltirilgan standart konstruksiyalarning bu turini ijtimoiy-siyosiy termin deb ajratib tahlil qilib o'tirmaymiz. Bizning vazifamiz bular terminmi yoki termin emasmi, uni o'rganish emas, balki gazetadan gazetaga ko'chib yuruvchi standart so'z birikmalarini o'rganishdan iborat.

Ot xarakteridagi standart so'z birikmalari tarkibiga so'z turkumlari jihatidan qaraydigan bo'lsak, unda asosan ot va sifatni uchratamiz. Ba'zan "bilan" ko'makchisi bog'lovchi o'rnida qo'llanib qolsa ham, lekin bunday yordamchi elementlar ot xarakteridagi standart so'z birikmalari tarkibida juda kam uchraydi.

Sintaktik vazifasi jihatidan bu standart so'z birikmalari gapning turli bo'lagi funksiyasida kela oladi. Lekin to'plangan material bunday standart birikmalarning ko'ppiq ega vazifasida qo'llanishini ko'rsatdi.

Standart konstruksiyalarga xos xususiyatlardan biri ko'proq umumiy xarakterdagi mazmunni ifodalashdir. Bu umumiylik kontekstda reallashadi. Mana shunday xolat ravishdosh oborotli standart konstruksiyalarga ham xosdir.

Yuqorida ko'rganimiz standart konstruksiyalar siyosiy gazetalaridagi rasmiy xabarlarda, partiya, davlat va hukumat boshliqlari va delegatsiyalarining uchrashuviga oid qo'shma axborotlarida, turli ijtimoiy-siyosiy voqealarga bag'ishlangan materiallarda ko'proq ishlatiladi. Deyarli ekspressiya hosil qilmaydigan bunday standart konstruksiyalar fan va texnika yutuqlari, xalq xo'jaligining turli sohasiga oid materiallarda ham ishlatiladi. Bularning tasvirga qay darajada singib ketishi jurnalistning mahoratiga, san'atiga bog'liq.

## **SIYOSIY GAZETA TILIDA JUFT VA TAKRORIY SO'ZLARNING QO'LLANISHI**

Yuqorida qayd etilganidek, siyosiy publitsistikada qo'llanuvchi nutqiy vositalarning muhim bir qismini standart elementlar tashkil qiladi. Bu standart nutq vositalarini tuzilishi va ma'no anglatishi jihatidan bir necha turga bo'lib o'rganish mumkin. Bular orasida juft va takroriy so'zlar ham salmoqli o'rin tutadi. Bu nutq vositalarining gazeta tilida qo'llanib turishi va yangi-yangi

turlarining paydo bo'lishi gazeta tilining ommaviyligini, xalqqa nihoyatda yaqinligini yana bir karra ta'kidlovchi omillardan biri bo'la oladi.

Juft va takroriy so'zlar, eng avvalo, og'zaki nutqqa xos bo'lgan ixcham hodisadir. Bunday so'zlarning yozma nutqda, jumladan gazeta tiliga singishi xalqchilikning, ixchamlikning ta'minlanishiga, hayot voqea-hodisalarining (reallikning) aniq ifodalanishiga, shuningdek, o'rni kelganda, gazeta nutqida emotsional-ta'sirchanlikning ham amalga oshishiga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir: "Darhaqiqat, solishtirib qarajak, bizdagi narx-navo ayrim Yevropa davrlaridan ham yuqori" ("Yoshlar ovozi" 2017-yil 68-son), "Maqolada oziq-ovqat, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, farmasevtika, elektrotexnika tarmoqlari yo'lida tashlangan qadamlar xususida so'z yuritilgan" ("Yoshlar ovozi" 2018-yil 62-son), "Tanlagan yo'lida og'ishmay, sobit e'tiqod bilan turmush tashvishlaridan, hayotning maydachuydalaridan baland yashab, yuraklarga yetib boradigan she'rlar bitish baxtini Yaratgan faqat suygan bandalariga ravo ko'radi" ("Yoshlar ovozi" 2018-yil 61-son), "Oilasini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlashga qiynalmaydi" ("Yoshlar ovozi" 2017-yil 60-son), "Tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyoz va va preferensiyalarni berish, bu sohani jadal rivojlantirishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlar tufayli yurtimizda yangi-yangi sanoat korxonalari, xizmat va servis shoxobchalari tashkil etilmoqda" ("Yoshlar ovozi" 2017-yil 99-son), "Qishloq joylariga toza ichimlik suvi, tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish bo'yicha katta-katta dasturlar amalga oshirilmoqda" ("Yoshlar ovozi" 2017-yil 99-son) va boshqalar. Og'zaki nutqda uzoq vaqtlardan buyon qo'llanib kelayotgan bunday juft va takroriy so'zlar xalqning tafakkur va tasavvuriga singib qolgan. Shuning uchun bunday so'zlarning gazetada qo'llanishi, dastlab gazeta tilida xalqchilikning ta'minlanishiga hissa qo'shadi. Gazeta nutqida ham u ob'ektni, ma'lum bir holatni ifodalovchi zarur vositaga aylanadi va tasvirning aniq bo'lishiga yordam beradi. Mana shunday xususiyatlar bu so'zlarning adabiy tilning yozma shaklidan, jumladan siyosiy publitsistik nashrlar tilidan ham mustahkam o'rin

olishiga zamin yaratadi. Bu esa ana shunday juft va takroriy soʻzlarning normativligini belgilovchi omillardan hisoblanadi.

Bunday leksik standartlar inson faoliyatining barcha sohalariga xos boʻlgan xususiyatlarni, tabiat va jamiyatdagi turli xil holatlarni, hodisa-voqealarni ifodalaydi. Aniqrogʻi, bunday soʻzlarni qoʻllashni ifoda obʻektining oʻzi taqozo etadi, zaruriy holatga aylantirib qoʻyadi. Natijada, bir tomondan, obʻekt yorqin va ravshan ifodalansa, ikkinchi tomondan, juft soʻzda mujassamlashgan turli maʼno qirralari namoyon buladi. Bu esa juft va takroriy soʻzlar faoliyatining kengayib borishiga, gazeta tilida ularning rang-barang koʻrinishlarining yuzaga kelishiga keng imkon yaratadi. Hozirgi gazeta sahifalarida qoʻllanayotgan bu leksik standartlarning turli-tuman shakllariga eʼtibor beraylik: “Shunga qaramay, bir-biriga nisbatan nihoyatda doʻstona munosabatda, urf-odat va qadriyatlarni avaylashga intiladi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 90-son), “...shahr, tuman va ovullarda bosqichma-bosqich ravishda yuqori saviyada, ob-havo sharoitini hisobga olgan holda tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishni taʼminlash” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 22-son), “...Buxoro viloyati harbiy-maʼmuriy sektor faoliyati, viloyatda harbiy shaharcha barpo etish borasidagi loyihalar bilan tanishdi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 21-son). “Prezidentimiz tizimli va aniq targʻibot-tashviqot ishlari, ayniqsa, xorijiy mamlakatlarda yoʻlga qoʻyilmaganini tanqid qildi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 5-son), “...kitob zamonaviy nashriyot-matbaa talablari asosida yuksak did bilan tayyorlanadi” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 14-son) va hokazo. Demak, gazeta tilida juft va takroriy soʻzlarning turli koʻrinishlarining vujudga kelishi va gazetadan gazetaga oʻtib takror qoʻllanishini ekstralingvistik hodisalar yaʼni tildan tashqari vositalarning oʻzi taqozo etadi. Shu tariqa juft va takroriy soʻzlar faoliyatida xam nolingvistik va lingvistik hodisalarning uzviy bogʻliqligi namoyon boʻladi. Koʻrinib turganidek, harbiy-maʼmuriy, targʻibot-tashviqot, nashriyot-matbaa va h. k. kabi juft soʻzlarning hozirgi oʻzbek adabiy tilida shakllanishida va leksik qatlamga kirib kelishida ikki omil uzviy bogʻliq holda namoyon boʻlmoqda. Bularning shakllanishida, bir tomondan, tilimizning

o'zida, azaldan davom etib kelayotgan eski modellar asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, shu so'zlar ob'ektining hayotda paydo bo'lishidir. Bu hozirgi siyosiy nashr tilidagi har xil leksik-grammatik normalarning namoyon bo'lishida lingvistik va nolingvistik omillarning o'zaro uzviy bog'liq holda yuz berishini tasdiqlovchi dalillardan biridir, albatta.

Bugungi kundagi siyosiy publitsistik materiallarda juft so'zlarning ham, takroriy so'zlarning ham barcha turini kuzatish mumkin. Bu juftliklar tarkibida so'zlarni aynan takrorlash bilan yaratilgan yoki birinchi elementi alohida qo'llanmaydigan so'zlar bilan birikib kelgan holda yaratilgan takroriy so'zlar ham borki, ular juda keng tarqalmagan bo'lsalar-da, hozirgi gazeta tilida qo'llanib turadi:

So'zlarni aynan takrorlashdan paydo bulgan takroriy so'zlar: aniq-aniq, tizim-tizim, yangi-yangi, tez-tez, ko'z-ko'z, izlana-izlana, qidira-qidira, shu-shu, yaxlit-yaxlit, katta-katta, dasta-dasta, qulay-qulay, qator-qator, bora-bora, ne-ne, og'ir-og'ir, bir-bir va boshqalar.

Birinchi elementi alohida qo'llanmaydigan, yakka olinganda hech qanday ma'no anglatmaydigan so'zlar bilan birikkan holda yaralgan juft va takroriy so'zlar: qut-baraka, noz-ne'mat, nes- nobud, xatti-harakat, ob-havo, bo'm-bo'sh, yop-yorug', bus-butun, qup-quruq, kap-katta, qop-qora, to'ppa-to'g'ri, poppa-posa, ko'm-ko'k, yam-yashil, qip-qizil, tip-tiniq va boshqalar.

So'zlarning ikkinchi komponentlari yakka holda qo'llanmaydigan, alohida olinganda hech qanday ma'no anglatmaydigan juft so'zlar: mahalla-ko'y, ekin-tikin, mayda-chuyda, xom-xatala, yolg'on-yashiq, buy-bast, meva-cheva, kiyim-kechak, yog'in-sochin, bola- chaqa, bosar-tusar, shosha-pisha, irim-sirim va boshqalar.

Xar ikkala komponenti ham alohida qo'llanmaydigan, yakka holda olib qo'llanganda esa hech qanday mazmun anglata olmaydigan juft so'zlar. Bunday so'zlar (juftliklar) hozirgi kunda shunday yaxlit qotib qolgan holatdagina ma'no anglatadilar: ayqash-uyqash, pala-partish, ship-shiydon, tor-mor, apil-tapil, o'lda-jo'lda, onda-sonda, ikir-chikir, atak-chechak, lom-mim va hokazo.



Har ikkala komponenti ham alohida-alohida qo'llana oladigan, komponentlari yakka holda ham mazmun anglatadigan juft so'zlar: nazorat-taftish, targ'ibot-tashviqot, ilmiy-amaliy, harbiy-ma'muriy, tartib-qoida, asta-sekin, kuch-quvvat, ko'rik-tanlov, davr-davron, uy-ro'zg'or, hovli-joy, uy-joy, huzur-halovat, es-hush, pand-nasihat, fahm-farosat, mol-mulk, qadr-qimmat, jabr-zulm, orzu-umid, hol-ahvol, gap-so'z, non-tuz, idish-tovoq, tan-jon, sabr-toqat, xotin-qiz, sog'-salomat, eson-omon, yig'im-terim, axborot-kommunikatsiya, ilmiy-innovatsion, huquq-tartibot va shu kabilar. Bunday tipdagi juft so'zlar xozirgi gazeta tilida ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Bu xil juft so'zlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari A. Hojiyevning "O'zbek tilida qushma, juft va takroriy so'zlar" kitobida batafsil yoritilgan.

Siyosiy mavzudagi gazeta nutqida rasmiylik, jiddiylik va xalqchilik ruhini alohida ifoda etadigan bunday leksik standartlar qatorida qarindoshlikni, jinsni anglatuvchi juft so'zlar ham, antonim so'zlar ham uchrab turadi: ota-ona, ota-bola, ona-bola, xotin-qiz, o'g'il-qiz, kelin-kuyov, er-xotin, opa-singil, aka-singil, opa-uka, kecha-kunduz, uzun-kalta, katta-kichik kabilar. Bu leksik standartlardagi umumiylik, jamlab ko'rsatish qobiliyati hozirgi gazeta tili uchun ham juda qo'l keladi.

Ijtimoiy-siyosiy gazetadagi juft va takroriy so'zlarga e'tibor qilganimizda, ularda o'ziga xos xususiyatlar borligini, ularning boshqa leksik vositalarga nisbatan boshqacharoq xususiyatlarga egaligini ko'ramiz. Masalan, ikki so'zning bir-biriga singishib ketishidan ma'no va mazmunning mukammallashuvini, shu so'z ta'sir kuchining yuqorilashuvini sezamiz. Shu bilan bir qatorda, bu so'zlarda mujassamlashgan yaxlit ma'nolarda abstrakt umumiylik holatlari ham qamralganligini ko'ramiz: tartib-qoida, oziq-ovqat, xat-hujjat, targ'ibot-tashviqot, yo'l-yo'riq, aql-idrok, bosh-qosh, gap-so'z, to'lib-toshib, yig'im-terim, qir-adir, dard-alam, shoshib-pishib, sabr-bardosh, chora-tadbir, orzu-havas, ko'z-ko'z, mo'l-ko'l, lom-mim, ahyon-ahyon, kasb-hunar, to'y-ma'raka singari. Bu qatordagi juft so'zlarda ma'no ifodasida asosiy rolni o'ynagan so'zning birinchi urinda qullanishi yetakchi xususiyatlardan

hisoblanadi. Masalan: “yo‘l-yo‘riq”, “chora-tadbir” kabi so‘zlarda ma’no ifodasida bosh rolni uynayotgan birinchi komponentni yetakchi so‘z deb ko‘rsatishimizning boisi shuki, bu so‘zlarda juft so‘zning asosiy, yetakchi ma’nosi mujassamdir: bularda juft so‘zdagi ma’no ifodasida asosiy rolni birinchi so‘z uynayapti. Bu birinchidan. Ikkinchidan, juft so‘zlarning ixchami, kam tovushdan iborati oldin qo‘llanadi: *kuch-g‘ayrat, o‘y-hayol, aql-zakovat, el-yurt* va boshqalar. To‘g‘ri bunday nutqiy vositalarning tuzilish jihatdan tenglari ham bor: *orzu-umid, shosha-pisha, mo‘l-ko‘l, ust-bosh, shirin-shakar, meva-cheva, katta-kichik, yig‘im-terim* kabilar. Ba‘zan juft va takroriy so‘zlardagi ikkinchi komponentga nisbatan birinchisining ko‘p tovushdan iboratlari ham uchraydi: *tartib-qoida, mahalla-ko‘y, rang-ro‘y* kabi. Lekin, juft so‘zlar tarkibidagi birinchi komponentning nisbatan ixcham shaklda bo‘lishi yetakchi xususiyatdir.

Umuman olganda, gazetada qo‘llanayotgan juft va takroriy so‘zlarni asosan ikki katta gruppaga bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

1. Og‘zaki nutqda keng qo‘llanadigan, gazeta tiliga singib ketgan juft va takroriy so‘zlar: *kiyim-kechak, to‘lib-toshib, tejab-tergab, oqizmay-tomizmay, yolg‘on-yashiq, dori-darmon, tosh-tarozi, bosh-qosh, savdo-sotiq, meva-cheva, narx-navo, ust-bosh, bola-chaqa, bosar-tusar, pala-partish, bo‘y-bast* kabi.

2. Yozma nutqning, ayniqsa, siyosiy gazeta nutqining o‘zida yuzaga kelgan juft va takroriy so‘zlar. Bugungi kunda o‘zbek matbuotida ular og‘zaki nutqdan kirgan juft so‘zlar bilan birlikda qo‘llanib, gazeta tilining o‘ziga xosligini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Bularning aksariyati ijtimoiy taraqqiyot, demokratik jarayonlar va siyosiy jarayonlarning faollashuvi tufayli xalqaro aloqalar va tillar hamkorligi natijasida yozma nutqda paydo bo‘lgan yangi juft so‘zlardir. Bu juft so‘zlar, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy islohotlar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot tufayli yangi-yangi tushunchalarni ifodalash zaruriyati natijasida va rus tilining ta’siri bilan yuzaga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tilimizda avvaldan mavjud bo‘lgan leksik vositalarning faollashishi, bu faollashuv yozma nutq ta’sirida ro‘y berganligini mujassamlashtirgan juft

soʻzlardan iboratdir. Shunga koʻra, bu turkumdagi juft soʻzlarni ikki guruhga boʻlib oʻrganamiz:

a) Yozma nutq taʼsirida avvaldan mavjud nutqiy vositalarimizning faollashuvi tufayli paydo bulgan juft soʻzlar: *hisobot-saylov, shart-sharoit, tartib-qoida, gʻayrat-shijoat, qonun-qoida, qoʻllab-quvvatlash, shon-shuhrat, fikr-mulohaza, taklif-mulohaza, ona-zamin, xohish-iroda, xohish-istak, xatti-harakat, oqibat-natija, qurol-yarogʻ, tinch-totuv, qiyofa-siymo, talab-ehtiyoj, orzu-intilish, savol-javob, aql-idrok, baxt-saodat, hurmat-eʻtibor, obroʻ-eʻtibor, diqqat-eʻtibor, hurmat-ehtiro, voqea-hodisa, kuch-qudrat, baxt-iqbol, tevarakatrof, ilm-maʼrifat, ilm-fan, taʼrif-tavsif, toʻla-toʻkis, atrof-muxit, oziq-ovqat, savdo-sanoat, qand-shakar, aql-idrok, aql-zakovat, chora-tadbir, kuzgi-qishki, yigʻim-terim* va boshqa soʻzlardir.

b) Ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hamda davlat va jamiyat hayotidagi demokratik jarayonlarni tushunchalarni anglatuvchi, siyosiy nashrlarda keng qoʻllanuvchi juft soʻzlarki, bularning aksariyati asosan gazetada paydo boʻlgan leksik standartlar desak ham yanglishmaymiz: *siyosiy-ommaviy, siyosiy-tashkiliy, iqtisodiy-siyosiy, ommaviy-siyosiy, gʻoyaviy-badiiy, ilmiy-innovatsion, ilmiy-nazariy, gʻoyaviy-tarbiyaviy, gʻoyaviy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy, madaniy-maishiy, axloqiy-tarbiyaviy, madaniy-tarbiyaviy, moddiy-madaniy, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqdisodiy, ijtimoiy-siyosiy, axborot-qidiruv, ilmiy-ommabop, gʻoyaviy mafkuraviy, uquv-ishlab chiqarish, oʻquv-tajriba, oʻquv-tarbiya, irrigatsiya-melioratsiya, ishchi-xizmatchi, talaba-yoshlar, oʻquvchi-yoshlar, yurak-tomir, qon-tomir, oshqozon-ichak, meʼda-ichak; tashkiliy-texnikaviy, badiiy-emotsional, ilmiy-texnikaviy, ilmiy-texnik, tashkiliy-texnik, kasb-hunar, moddiy-texnika, fan-texnika, loyixa-texnologiya, yoqilgʻi-energetika, temir-beton, qurilish-montaj, koʻrik-tanlov, ilmiy-metodik, nutqiy-kontekstual, tajriba-mexanika, yoʻl-transport, kon-metallurgiya, agrar-sanoat, agrar-iqtisodiy, harbiy-maʼmuriy, xalqaro-strategik, hisobot-saylov, seminar-kengash, general-leytenant, general-polkovnik, press-klub, press-konferensiya, team-building, nazorat-taftish, axborot-tahlil, axborot-*

*texnologiya, axborot-kommunikatsiya, sud-huquq, biznes-forum, transport-kommunikatsiya, huquq-tartibot, huquq-targ'ibot, targ'ibot-tashviqot, seminar-trening* kabilar. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, internatsional juft so'zlarning ba'zan har ikki komponenti, ba'zan bir komponenti tarjima qilib olingan hamda aynan o'zlashtirib olingan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, davlat boshqaruvidagi demokratik jarayonlar hamda til siyosatini barqarorlashuvi o'zbek adabiy tilimiz uchun butun imkoniyatni hozirlagan. Shu bilan bir qatorda, har bir tilning o'ziga xos qonuniyati, nutqiy iste'mol normasi ham borki, bu internatsional so'zlarning milliy tillarga o'tishida ham amal qiladi, ya'ni internatsional so'z endi iste'mol doirasiga kirib kelayotgan tilning qonuniyatiga bo'ysunadi. Shuning uchun ham internatsional so'zning o'zak va negizlari saqlanib qolgan holda, ularning affiks qismi har xil o'zgarishga uchraydi: yo ular tamoman tushirib qoldiriladi, yoki shu tilning qo'shimchalarini qabul qiladi. Ayni choqda bunday juft so'zlarning ba'zan ikki komponenti, ba'zan bir komponenti tarjima qilib olinadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

a) so'zning o'zak va negizi olinib, qo'shimcha qismi tushirib qoldirilgan juft so'zlar: *fizika-matematika, neft-gaz, sanitariya-gigiyena, gazeta-jurnal, shaxmat-shashka, eksport-import, yo'l-transport, kon-metallurgiya, axborot-texnologiya va hokazo.*

b) Internatsional juft so'z o'zi kirib kelayotgan tilning, ya'ni o'zbek tilining qo'shimchalarini qabul qilgan holda yaratilgan juft so'zlar: *ilmiy-metodik, tashkiliy-texnikaviy, badiiy-emotsional, seminar-trening, moddiy-texnika, ilmiy-texnikaviy madaniy-tarbiyaviy, ilmiy-nazariy, ilmiy-innovatsion, va boshqalar.* Ayni paytda bunday juft so'zlarning goh bir komponenti, goh har ikki komponenti ham tarjima qilib olinadi, shu tariqa bunday juft so'zlar tilimizga singib ketadi, o'zbek tilida iste'mol qilish huquqini oladi va tilimizdagi avvaldan mavjud nutqiy vositalar bilan teng darajada ishlatila boshlaydi. Bularni tasnif etgandagina leksik kategoriya sifatida boshqa tildan o'tgan juft so'zlar sifatida xarakterlasak ham lekin ularning ma'no anglatish qiymati, qo'llanish xususiyati

haqida gap ketadigan bo'lsa, ularni o'zbek tilidagi boshqa elementlardan ajratmasdan, o'z til boyligimiz sifatida qarashga to'g'ri keladi. Bu esa ana shu juft so'zlarning o'zbek adabiy tilida qo'llanish huquqini olganligini, normativ holatga muvofiqlashganligini ko'rsatuvchi muhim omillardandir.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va iqtisodiy taraqqiyotning keng imkoniyati tufayli yozma nutq ta'sirida yaratilib, siyosiy publitsistikada faol qo'llanayotgan shunday juft so'zlar borki, bular tilimizning ichki imkoniyati kengligini, boyligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu yerda yozma va og'zaki nutqning xususiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi anglashiladi. Masalan: qonun-qoida, g'ayrat-shijoat, xohish-iroda, oqibat-natija, hisob-kitob, taklif-mulohaza, aql-zakovat, tartib-qoida kabilar. Bu juft so'zlar tarkibidagi har ikki element ham tilimizda avvaldan mavjud. Lekin shu juftliklarda "qoida", "shijoat", "iroda", "natija", "kitob", "mulohaza", "zakovat" kabi ma'lum darajada kitobiylik xususiyatini saqlab qolgan so'zlarning qo'llanishi bu so'z birikmalarining ham nisbatan keng qamrovliligi, ham juft so'zlar tarkibida faol qatlam ekanligini ko'rsatadi.

Endilikda tilimizning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan va faollashgan bunday juft so'zlarning yozma nutqning barcha turida, jumladan gazetada qo'llanishi normativ tus olgan. Bular turli kasbdagi ziyolilar nutqida ham, rasmiy jarayonlarda ham endilikda faol qo'llanayapti. Bu bir tomomdan ana shu juft so'zlar tarkibidagi har ikki komponentning tilimizda avvaldan mavjudligi bilan bo'lsa, ikkinchi tomondan og'zaki nutqda yozma nutqning ta'siri tufayli ro'y berdi. Shuning uchun ham bunday hodisaning o'ziga xosligini voqeligimiz xususiyatidan axtarmoq kerak, ya'ni voqeligimiz yaratgan keng imkoniyat faqat og'zaki nutqning yozma nutqda ta'sirini ta'minlabgina qolmasdan, ayni paytda yozma nutqning og'zaki nutqda ta'sir etishiga imkon berdi.

Yana jihat borki, siyosiy gazeta materiallarida qo'llanayotgan juft va takroriy so'zlarning asosiy qismini xalq nutqidan olingan juft so'zlar tashkil qiladi. Bunday so'zlar uzoq davrlar davomida yozma hamda og'zaki nutqimizda

faol qo‘llanib kelgan. Bular tilimizda asrlar osha qo‘llanib kelinayotganlari uchun ba‘zan stilistik jihatdan betaraf holatlarni ifoda qilsa, ularning bir xillari ifodada obrazlilikni yuzaga keltiradi, ekspressiya yaratadi. Shu tariqa ob‘ekt ifodasida jonlilikni ta‘minlab, gazetxonning qiziqishini kuchaytirishga, unga ta‘sir etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy islohotlar, fuqarolarimizning g‘ayrat-shijoatining tobora avj olishi, hukumatimiz qarorlarining xalq manfaatini himoya qilishga qaratilgani, jamiyatda hukm surayotgan demokratik muhit tilimizda juft so‘zlarni faollashtirish bilan bir qatorda, ular mazmunida yangi-yangi qirralarni ham mujassamlashtirishga imkon beryapti. Masalan: “targ‘ibot-tashviqot” juft so‘zi odatda tushuntirish, yetkazib berish, muayyan maqsadga yonaltirish mazmunida ishlatiladi. Siyosiy nashrlarning deyarli barchasida ana shu juft so‘zning ma‘nosi kengayib, xalqning ijtimoiy faolligini oshirish, ezgu chora-tadbirlarni kuchaytirish, xalq ongiga mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy islohotlarni singdirib borish, targ‘ib qilish, chorlash va hamjihatlik ma‘nosida qo‘llanilmoqda. Demak, davr ruhini, zamon izini o‘ziga singdirish juft so‘zlarga ham xos hodisadir. “Oilaviy ajrimlar tufayli qanchadan qancha bolalar ota yoki ona mehridan mosuvo bo‘lmoqda” (“Yoshlar ovozi” 2018-yil 28-son). Bunda “qanchadan-qancha” takroriy so‘zini qo‘llash orqali ma‘no kuchaytirilib, shu nutqda ta‘sirchanlik hosil qilingan. Yana bir misolni ko‘raylik: “Ko‘cha va yo‘llar, gaz, suv, elektr tarmoqlaridagi, maktab va bog‘chalardagi ta‘mirlash, obodonlashtirish ishlari kundan-kunga Manasning chiqoyini ochibgina qolmay, manasliklarda vatanparvarlik hissini, davlatga ishonchini mustahkamlamoqda”. Bu misolda ham “kundan-kunga” so‘zidagi asosiy va yetakchi ma‘no, bu standart leksik vosita shu nutqiy holatning ta‘sir kuchini oshirgan.

Bunday nutqiy vositalardagi obrazlilik, mantiq va mazmunni ixcham ifodalay olish imkoni, ayni vaqtda xalq nutqida uzoq vaqtlardan beri qo‘llanib kelinayotganligi bularning normativlik huquqini ta‘minlovchi omillardir.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, bunday juftliklar inson faoliyatining barcha sohalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham ularning ba‘zilari

soʻzlar takroridan iborat boʻlsa, baʼzilari maʼnodosh soʻzlardan tuziladi. Baʼzilari ot va sifatdan iborat boʻlsa, baʼzilari ravish va feʼldan, taqlidiy soʻzlardan ham tarkib topadi. Eng muhimi ularning leksik va grammatik tarkibi qanday boʻlishidan qatʼi nazar, ular aniqlik va ixchamlik uchun, maʼlum holatlarni boʻrttirish va taʼkidlash uchun, umumlashtirib, jamlab koʻrsatish uchun xizmat qiladi: “yangi-yangi tashabbuslar”, “butun-butun investitsiyalar”, “Fidoiy yoshlar otryadlarining tashabbusi qoʻllab-quvvatlandi” va boshqalar. Bu yerda keltirilgan juft va takroriy soʻzlarning baʼzilari oddiy holatlarni taʼkidlash, voqealarning takrorlanib turishini koʻrsatishga xizmat qilsa, baʼzilarining ifodasida inson faoliyati, aqlu zakovatiga xos umumiy holatlarning mujassamlashganini koʻramiz.

Juft va takroriy soʻzlarning matbuotda, xususan siyosiy publitsistika tilida faollashuvi, shuningdek, hayotning qaysi sohasida qanchalik qoʻllanishi davr, zamon, muhit bilan bogʻliqdir. Qoʻllanishda nolingvistik va lingvistik omillar oʻzaro bogʻliq holda amal qilishi va reallikni qanchalik roʻyobga chiqara olishi, ayni paytda jurnalistlarning, muallifning mahoratiga ham bogʻliq boʻladi. Chunki til boyligidan foydalanib, oʻsha obʼekt ifodasiga eng mos keluvchi nutqiy vositani topib qoʻllay bilish muallifdan katta mehnat va mahorat talab qiladi. Xullas, standart leksik vositalardan biri juft va takroriy soʻzlarning gazetada qoʻllanishi ana shunday rang-baranglikka ega.

Uzoq vaqtlardan buyon qoʻllanishi oʻzida abstrakt umumiy maʼnoni mujassamlashtirishi va mantiqi bilan iboraga yaqinligi, tuzilishi jihatidan yakka soʻz, bir soʻz oʻrnida kela olishi, ixchamlik juft soʻzlarning gazetada tez-tez va koʻp qoʻllanishiga imkon beradi. Mana shu qoʻllanish uning norma ekanligini koʻrsatuvchi omillardandir.

Siyosiy gazetalarimiz tahlilida ularning tilida kamchiliklar ham mavjud ekanligiga guvoh boʻlamiz. Soʻz qoʻllashda har bir soʻzning bajaradigan vazifasi va ishlatilish oʻrniga alohida eʼtibor berish lozim. Chunki har bir soʻzning oʻz salmogʻi, mazmuni, xususiyati bor. Soʻz ana shu xususiyati bilan ishlatilsa, gazeta tilining tabiiyligini taʼminlashga xizmat qiladi. Bu esa, materialning aniq

va ravon ifodasi uchun zarur shartlardan biridir. Aks holda, tasvirda ortiqchalik, xalq tilidagi xususiyatdan noo‘rin o‘zgachalik holatlari yuz beradi. Gazeta tilining tabiiyligini ta‘minlashda ona tilining xususiyatiga ahamiyat berish, qonun-qoidasiga rioya qilish muhim omillardan biridir.

Ba‘zan katta hajmdagi siyosiy materiallarda noo‘rin takrorlar, ortiqcha so‘zlar ham uchrab qoladi. “Yoshlar ovozi” gazetasining 2017-yil 68-sonidagi “Barcha kuchni xalq kuchidan olaylik yohud elga ezgulik eltgan eshelon” nomli maqolada ham, jumlar noo‘rin ravishda takror qo‘llanganligini ko‘rish mumkin. So‘zlarni tejab, o‘rinli ishlatish gazetaning muhim xususiyatlaridan biri. Lekin ayrim hollarda so‘zning ortiqcha qo‘llanishi ham uchrab turadi.

Vaholanki, siyosiy gazeta tili odatda tartiblangan, noo‘rin takrorga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi. Bu iboralarning me‘yorida ortiq darajada bunday takror ishlatilishi ifodalayotgan fikrning yuzaga chiqishiga salbiy ta‘sir etadi, o‘sha nutq vositasini esa siyqalashtiradi, shablonlashtiradi. Agar muallif ozgina e‘tibor qilganida edi, shu iboralarning sinonimlarini yoki xuddi shu iboralarda ifodalangan mazmumii yuzaga chiqaruvchi boshqa nutq vositalarini qo‘llab, gazeta tilining rang-barangligiga, tasvirning ta‘sirchanligiga erishgan bo‘lardi. “ado etildi” birikmasini bir o‘rinda “bajarildi” so‘zi bilan berish mumkin, “..katta ishlar olib borildi” degan parchada birikmani “qilindi” so‘zi bilan almashtirish mumkin. “Bino-inshootlarning qurilishi tezkorlik bilan olib borildi” jumlasini “Bino-inshootlar qurilishi tezlashtirildi” tarzida tuzish mumkin edi. Ko‘rinib turibdiki, tilimizda fikrni rang-barang tarzda ifodalash uchun barcha vositalar mavjud. Ana shu mavjud: vositalarni tanlab, saralab fikr ifodasiga xizmat qildirish uchun esa nutq va mehnat lozim.



### **3-bob. Siyosiy publitsistikaning uslubiy hususiyatlari**

#### **3.1. “Yoshlar ovozi” gazetasi uslubining tahlili**

Matbuot materiallarining ta'sirli bo'lishida muallif qo'llaydigan bayon uslubi, til birliklari muhim rol o'ynaydi. Ma'lumot qanchalik aniq va ravshan berilsa, o'quvchi auditoriyasiga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Publitsistik uslub yorqin va aniqligi, o'zida yozma va og'zaki nutq elementlarini mujassamlashtirgani, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik terminlarning qo'llanishi, so'zlashuv tili sintaksisi elementi va frazeologizmning mavjudligi bilan boshqa funksional uslublardan ajralib turadi. Publitsistik uslub o'zining novatorligi bilan alohida xususiyat kasb etadi. Fan, texnika, madaniyat, sanoat, qishloq xo'jaligi, jamiyatning taraqqiy qilishi natijasida tilda yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi. Bular dastlab o'z aksini gazetada – publitsistikada topadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, “Publitsistika” aslida “xalq” so'zidan olingan bo'lib, ijtimoiy, xalqchil degan ma'noni anglatadi va ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotning siyosiy masalalarini vaqtli matbuot hamda nashrlar orqali ommaviy aks ettiradi. Publitsistik uslub elementlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'la boshlagan edi. Masalan, qadimiy oratorlik nutqlari va b. Tarixiy taraqqiyot bosqichlari xususan, pressa (matbuot) ning qamrovi tobora kengaydi. Siyosiy jarayonda avvaldan davom etib kelgan og'zaki siyosiy nutq xalq ommasini siyosiy va tashkiliy jihatdan uyushtiruvchilik qudratiga ega bo'lgan yozma nutqqa, anikrog'i, stanoklarda chop etilgan va hamma uchun xizmat qila oladigan ommaviy yozma nutqqa (pressaga) o'z o'rnini bera bordi. Endi matbuot ommani siyosiy va tashkiliy jipslashtiruvchi organga aylana bordi. Butun ommaga xizmat qila boshladi. Bu kabi hodisalar uslublarning ham taraqqiy qilishiga sabab bo'ldi. Xuddi mana shunday jarayonlar mahsulidan biri publitsistika uslubi bo'ldi.

O'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti bosqichida publitsistikaning rivoj topib borishi va bu soha uslubining ahamiyatini oshib borishi dastlab rus tili

ta'siri ostida bo'ldi. 1870 yilda "Turkestarskiye vedomosti" nomi bilan birinchi rasmiy gazeta rus tilida chiqa boshladi. Turkistonda vaqtli matbuot tarixi ana shu gazetadan boshlandi. 1883 yilda bu gazeta "Turkiston viloyatining gazetisi"ga aylantirildi. "Turkiston viloyatining gazetisi"da o'zbek tilida qator maqolalar muntazam bosilib turdi. Boshqa adabiy-badiiy janrlar qatorida maqola janri o'zining yangi rivojlanish istiqboliga ega bo'ldi. Furqat, Ishoqxon (Ibrat), Sattorxon, Hakimxon va boshqa mahalliy publitsistlarning turli masalalar haqida bahs etuvchi maqolalari bosilib turdi. Publitsistik taraqqiyotda shuningdek H. H. Niyoziy, A. Avloniy, A. Qodiriy, S. Ayniy, Mirmuhsin Shermuhammedov, G'. G'ulom, H. Olimjon, A. Qahhor, Ziyosaid, Nazir Safarov kabi ijodkorlarning hissi katta bo'ldi.

Muallif bularning har qaysisining o'ziga xos tomonlarini konkret faktlar bilan alohida-alohida ochib beradi. "Publitsistika mavzu-material xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy xarakterda bo'ladi. Uslub jihatidan bahs-munozarali, tashviqot-targ'ibot, tanqidiy-analitik, satirik ko'rinishlarga ega.

Uslub har bir muallif, ijodkor uchun ma'lum xarakterga ega bo'lgan tasviriy vositalar tizimidirki, badiiy tasvir va nutq tuzilishining deyarli hamma tomonlarini o'z ichiga oladi. Ana shuning uchun ham har bir san'atkor ijodini tekshirganda, uning tili va uslubini qo'shib o'rganish zarur bo'ladi. Zotan, har bir yozuvchi muallifning o'ziga xos tomoni uning til va uslubidagi yutug'i bilan belgilanadi.<sup>18</sup>

Shu nuqtai nazardan, inson faoliyatining barcha sohasini aks ettiruvchi gazeta publitsistik uslubi juda faol va aktual formadir. Chunki publitsistik uslubning eng ko'p qo'llanish sohasi gazetadir. "Publitsistik uslub bu hammadan avval gazetadir". "Gazetada eng asosiy va bosh o'rinni publitsistika egallaydi".

Gazeta publitsistikasi o'zining operativligi va funksional nuqtai nazaridan "kitobiy", hatto "jurnal" publitsistikasidan ham o'z mohiyati bilan farq qiladi.<sup>19</sup>

---

<sup>18</sup> Bu haqda qarang: Ne'matova D. Ch'ulpon publitsistik asarlarining lingvistik ta'hlili: avrotreferat. – Toshkent, 2004 – 24 b.

<sup>19</sup> Bu haqda qarang: Mualliflar. U'zbek nutqi madaniyati очерklari. – Toshkent: Fan, 1988. – 190 b.

Har bir gazetaning o'z vazifasi, o'z funksiyasidan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlari bor. Ma'lumki, gazetaning asosiy funksiyasi kundalik hayotimizda; ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida axborot berishdir. Ana shu axborotii gazetxonga yetkazuvchi nutq vositalari mavzuning qandayligiga ko'ra tanlanadi. Shu nuqtai nazardan siyosiy nashrlarda ham ijtimoiy-siyosiy yo'nalishga doir materiallarning tilning barcha elementlari va umumiy janrlarga tegishli lisoniy va nutqiy vositalardan foydalaniladi. Barcha gazetalar tilidagi umumiylik shu bilan xarakterlanadi.

Mavzu va tematik jihatdan ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-axborot, siyosiy, siyosiy va axborot-tahlil yo'nalishidagi gazetalar o'z muassisligiga ko'ra davlat idoralari, huquqiy boshqaruv organlari va davlat siyosatini amalga oshirishi belgilangan tashkilotlar boshchiligida rasmiy nashrlar sifatida jamoatchilikka taqdim etiladi.

Gazeta publitsistikasi ommaviy kommunikatsiyaning bir turi bo'lib, publitsistik uslubning eng ommabop, eng keng foydalaniladigan shaklidir. Bu juda murakkab hodisadir. Chunki gazetaning vazifasi bir xil emas, u ko'p funksiyali. ko'p qirralidir. Gazetaning muomala sharoiti, ya'ni yaxlit holda olganda, ekstralingvistik, (tildan tashqari) asoslari va ularning o'ziga xos xususiyatlari publitsistik uslubni murakkab jarayonlarga olib kiradi. Gazeta publitsistikasida juda ko'p janrlar ishtirok etadi va ko'pincha ular o'zaro tutashadi: xabar, reportaj, intervyu, hisobot, korrespondensiya, maqola, sharh, retsenziya, obzor, xat; badiiy-publitsistik janrlar: ocherk, feleton, pamflet, lavha... Turli murakkablikdagi bunday janrlar bir-biridan farq qiladi, albatta. Ammo, ko'pincha gazeta publitsistikasida bu janrlarning elementlari o'zaro birlashib, qorishib ketadi. Bularning barchasi maqolada o'z aksini topadi. Ba'zi o'rinlarda gazeta tilida uslub elementlari hamda janrlarning o'zaro chatishuvi hodisasi gazeta nutqi uchun tabiiy holdir. Xususan, siyosiy nashrlardagi materiallarda odatda ilmiy va rasmiy-idoraviy uslub elementlari ham qorishishi mumkin. *Masalan: "Butun dunyo miqyosida o'z tatbig'ini topgan mazkur konsepsiya raqamli gadgetlar yordamida sayyohlarga qator qulayliklar yaratib*

*berishni ko'zda tutadi* ("Yoshlar ovozi", 2017-yil 65-son). Ammo, shuni alohida qayd etish lozimki, janr elementlarining qorishib ketishi, uslubiy qo'shilib ketish holatlari o'sha matn, o'sha mavzu yoki kontekstning mazmuni va funksiyasi bilan bevosita bog'langan holda ro'y beradi. Chunki bunday materiallar o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra rasmiylik, jiddiylik, yuqori pafosni, ko'tarinkilikni, tantanavorlikni, xullas, yuqori yoki quyi ekspressiv ta'sirchanlikni talab qiladi. Shuning uchun bu xil matnlar xuddi mana shunday o'ziga xos ta'sirchanlik tashuvchi so'z va iboralarsiz ish ko'ra olmaydi. Chunki gazeta publitsistikasi hayotni butun murakkabligi bilan turli tomonlama aks ettirib, shu tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va ularning sub'ektlari bilan ish ko'radi. Xususan, siyosiy nashrlar materiallarida odatda hisobot (otchet) janrini, rasmiy(idoraviy) janr deyishadi. Diplomatiya munosabatlar, uchrashuvlar, maxsus davlat voqealari, hukumat qarorlarining ijro holati hisobot janrini talab qiladi. Bu paytda kichkina hajmda keng, katta mazmun ifoda etiladi. Berilayotgan informatsiya aniq va konkret bo'lishi lozim. Bunday holatlarda o'z imkoniyati jihatidan bu janr siyosiy publitsistikada mujassamlashadi. Ammo, agar voqealarga shaxsiy munosabat, shaxsiy izohlar (ijtimoiy asoslangan holda) berish lozim bo'lib qolsa, unda siyosiy janrda ham emotsiyani, shaxsiy munosabatni, baho berishni talab qiladi. Bunday paytlarda siyosiy konvergensiya holati yuzaga keladi, turli publitsistik janrlarning (hatto reportaj va intervyu) elementlarini o'zida singdiradi. Bunday holat quyidagi misolda ham ko'rinib turibdiki, axborot va siyosiy hisobot ekspressiv ta'sir etuvchi kuchga aylanadi: *"Sentyabr oyining boshida O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma imzolaniishi tom ma'nodagi muhim voqea bo'ldi"* ("Yoshlar ovozi" 2017 yil 78-son) kabi. Siyosiy gazetalardagi materiallarda hamma matnlar ham siyosiy publitsistik qolip ostida yuzaga kelgan ya'ni, aynan siyosiy matn degan so'z emas, unda Qonun va qonunosti hujjatlar, xizmat qog'ozlari uslubiga oid materiallar ham, masalan, diplomatik yozishmalar, sessiya, plenium, konferensiya materiallari, turli xil loyihalar, nizom (ustav) va yo'riqnomalar, turli rasmiy xabarlar, reklama va e'lonlar,

xizmatga doir har xil rasmiy-administrativ materiallar ham mavjud. Masalan, “O‘zbekiston Prezidentining Turkiyaga davlat tashrifi samarali bo‘ldi” sarlavhali bir rasmiy xabar matnini keltiramiz: *“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan Turkiya Respublikasi Buyuk millar majlisi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolandi”* (“Yoshlar ovozi” 2017 yil 89-son) Shuningdek, mazkur gazetalarda badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslublarining nutq elementlari va yuqorida ta’kidlaganimizdek, gazetaning boshqa janrlariga tegishli lisoniy vositalar ham faol ishtirok etadi.

Umuman olganda ijtimoiy-siyosiy gazeta nashrlarining uslubi bilan ilmiy uslub va rasmiy uslubning ba’zi umumiy jihatlari o‘zaro o‘xshash belgilarga ega bo‘lsa-da, ammo o‘z mohiyati bilan ular bir-biridan katta farq qiladi. Masalan, fan bilan publitsistikaning umumiy belgilari: har ikkalasi ham axborot beradi. Fanda ham, publitsistikada ham faktlar va jarayotlarga qarashlar va munosabatlar beriladi. Fan bayon qiladi, tushuntiradi va tasnif etadi; tabiat va jamiyat hodisalarini tadqiq etayotganda ularga juda sinchkovlik bilan qarab, ikir-chikirigacha har taraflama yondoshadi. Shuningdek, fan fakt va hodisalarni oddiy tarzda, emotsiyasiz, o‘rtacha me’yorda bayon etadi. Masalan, fan nuqtai nazaridan faqat statistika, anketalar va analizlar bilan cheklanib, shu faktlar asosida ma’lum ilmiy xulosalar chiqarishi mumkin. Siyosiy publitsistik materialda esa fan xulosalarining umumiy belgilarini targ‘ibot va tashviqot orqali qilinadi va ommalashtiriladi. Siyosiy gazetalarda jarayon va faktlarni axborot va targ‘ibot qilish uchun o‘rganmaydi, balki xalq ommasiga ta’sir kilish uchun o‘rganadi va shu asosda muayyan siyosiy jarayon yoki davlat islohotlarini targib etadi. Masalan *“Yaxshi fazilatlar mutolaadandir”* sarlavhali materialda birlamchi targ‘ibot sarlavhaning o‘zida, shuningdek maqola matnida ham faktlar orqali gazetxonga axborot uzatilmoqda: *“Joriy yilning o‘tgan davrida 135 nomga yaqin kitob nashriyotimizda chop etilgan bo‘lsa, ularning 80 ga yaqini bolalar uchun mo‘ljallangan”* (“Yoshlar ovozi” 2017 yil 77-son).

Bundan tashqari, siyosiy yoʻnalishdagi gazetalar doimo operativ ravishda ish koʻrib, dolzarb va davlat ahamiyatiga doir muhim masalalarni xozirjavoblik bilan juda tez yoritib boradi va har doim bugungi kunga boʻysunadi.

Hodisalarga yondoshish funksiyasi, taʼsir qilish vositalari jihatidan siyosiy gazetalarning yana bir xususiyati ular uslub nuqtai nazaridan badiiy adabiyot bilan oʻzaro yaqinlashadi. Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi voqelikni obrazli suratda aks ettirish va kitobxonga estetik taʼsir etishdan iboratdir. Gazeta ham voqelikni aks ettirib, kundalik voqeadan gazetxonni xabardor qiladi. Lekin siyosiy gazeta voqealarni badiiy tarzda emas, koʻproq rasmiy siyosiy tusdagi uslub orqali kundalik nutqimiz yordamida ifodalaydi. Bu, albatta, gazetada badiiy uslubga oid elementlar yoʻq degan soʻz emas. Gazetada bosiladigan sheʼriy va nasriy asarlar, badiiy tarjimalar, ijtimoiy-siyosiy shiorlar, mashxur arboblarning fikrlari va davlat idoralarining tematik epigraflari, turli dramatik asarlardan parchalar gazetada badiiy uslub mavjudligini koʻrsatadi. Masalan. *“Kitoblarni yoqishdan ham dahshatli jinoyatlar bor. Shulardan biri – ularni oʻqimaslikdir”, degan edi buyuklardan biri* (*“Yoshlar ovozi” 2017 yil 72-son*)

Shu bilan birga, feleton, tanqidiy-tahliliy lavha, ocherk, reportaj kabi jiddiy publitsistik materiallarda va boshqa turli xil matnlarda badiiy uslubga xos boʻlgan oʻxshatish, sifatlash, metafora, mubolagʻa, kesatish kabi elementlar, shuningdek, dialoglar uchraydi. Bular badiiy uslub elementlarining siyosiy mavzudagi gazetalarda ancha salmoqli oʻrin tutishini koʻrsatadi.

Publitsistik uslub mustaqil uslub. Garchi u ijtimoiy-siyosiy uslub, gazeta uslubi, gazetaviy-siyosiy uslub, gazeta-publitsistik uslub, publitsistik uslub kabi nomlar bilan turlicha atalsa-da, mustaqil publitsistik uslubdir. U qaysi nom bilan atalmasin, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan siyosiy jarayonlar bilan bogʻliqdir.

Siyosiy gazetalardagi materiallar uslubida ham, badiiy adabiyotdagi matnlar uslubida ham muallif shaxsi hal kiluvchi rol oʻynaydi. Ammo, bularda muallif shaxsi ishtiroki har xil darajada boʻladi. Badiiy tasvirda muallif koʻpincha qochishga, chiqib ketishga harakat qiladi. Baʼzan u qahramon obrazida yashirinadi. Siyosiy materialda xususan, maqola va murojaatnomalarda

esa muallif shaxsi saqlanadi va umumlashadi. Muallif tomonidan ob'ektiv va betaraf tarzda fikr ifodalanadi yoki nashr xususiyatidan kelib chiqib davlat siyosatiga oid jarayonlar va rasmiy-idoraviy hujjatlar aynan keltiriladi. Publitsistik tasvirda sub'ektivlik elementi badiiy uslubdagiga nisbatan ko'proq, yuqoriroq darajada bo'ladi. Bu uslubda muallif o'z fikrlarini ifodalaydi, ochiq ijtimoiy va asoslangan baho berishni ko'chaytiradi. Shuning uchun ham siyosiy nashr materiallar nutqning bosh prinsipi uning ochiqligidir. Bunda muallif shaxsi bevosita va to'g'ridan-to'g'ri ko'rinadi. Ijtimoiy-siyosiy uslubdagi nutqda muallif shaxsining ochiq-oydin namoyon bo'lishini quyidagidek misollarda aniq ko'zga tashlanadi: *“Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, huquqlari”, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 30 iyun kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuzilishi va shu sanani “Yoshlar kuni” deb e'lon qilinishi so'zimni isbotlaydi. (“Yoshlar ovozi” 2017 yil 85-son); Bularning barchasi bizning mamlakatimiz va xalqimiz haqidagi tasavvuringizni kengaytiradi, sizlar uchun ijod va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman. (“Yoshlar ovozi” 2017 yil 72-son);*

Agar maqola muallifi ko'pchilik nomidan yoki o'z xalqi nomidan gapiradigan bo'lsa, muallif I shaxs olmoshining ko'pligi “biz” da ko'rinadi:

*“Xalqlarimiz o'rtasida tarixan shakllangan qardoshlik va ahil qo'shnichilik musobotlarini yuksak qadrlaymiz” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil, 74-son); “Biz dunyodagi turli xalqlarning ma'naviy olamini musiqa orqali ifoda etadigan, ularning salomi va ezgu tilaklarini yetkazadigan tinchlik va do'stlik elchilari siqatida qabul qilamiz” (“Yoshlar ovozi” 2017 yil 72-son).*

Muallif siyosiy publitsistik uslubda ma'lum bir ijtimoiy guruh nomidan, hukumat nomidan, partiya, davlat va nodavlat tashkilot nomidan yoki bo'lmasa ijtimoiy asoslangan holda shaxsan o'z nomidan gapiradi. Shunga ko'ra publitsistik nutq deyarli hamma vaqt shaxsiy emotsional xarakterda bo'ladi. Ammo siyosiy publitsistik uslubning turli janrlarida muallif shaxsining ishtiroki turlicha darajada bo'ladi. Shunday janrlar borki, muallif butunlay tushib qoladi, ishtirok etmaydi. Masalan, hukumat Qarorlari berilganda, har xil xabarlarda,

hisobotlarda, xronik axborotlarda, tahliliy maqolalar va sharhlarda bu xususiyatni ko‘rish mumkin:

*“Uchrashuvda Hamdo‘stlik davlatlar o‘rtasida turli sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish , xavfsizlikni mustahkamlash, mintaqaga tahdid va hatarlarning oldini olish masalalariga e‘tibor qaratildi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil, 104-son); “Sankt-Peterburg yoshlar siyosati va jamoat tashkilotlari bilan aloqa qo‘mitasi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi o‘rtasida hamkorlik rishtalari bog‘landi” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil, 93-son) va boshqalar.*

Axborot va tahliliy maqolada ta’sirchanlik bilan predmetlilik o‘zaro dialektik birlikda amalga oshishi uchun muallif saviyasi va bilim darajasining qanchalik kengligi, chuqurligi va ob’ektivligi, ijtimoiy-siyosiy faolligi, shaxsiy fuqarolik pozitsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy muassis boshchiligidagi gazeta nashrlarining publitsistik uslub qonuniyatlari voqealarga faol fuqarolik pozitsiyasida turib munosabat bildirishni, inson manfaati, qonunlarga itoatkorlik, jamiyat taraqqiyoti va odamlar taqdiri ustida o‘ylashni hamda har bir so‘zga yuksak mas’uliyat bilan qarashni, chuqur bilimni talab etadi. Chunki bu mezon siyosiy publitsistik uslub qonuniyatlarida asosiy va yetakchi o‘rinda turadi. Bu borada yana shuni alohida qayd etmoq kerakki, ma’lum mullifning yoki jurnalistning shaxsiy munosabati aks etgan material zamirida ko‘pchilinning, jamiyatning munosabati yotadi. Muallif, prinsipga ko‘ra hamisha omma nomidan gapiradi. Shuning uchun bu uslubda muallifning shaxsiy munosabati bilan xalqning munosabati mujassamlashgan bo‘ladi.

Shuningdek, siyosiy publitsistik uslubning shunday xususiyati ham borki, ular faqat ijtimoiy-siyosiy masalalarni aks ettiribgina qolmasdan, ularga munosabat bildirar, ularning mohiyatiga baxo berar ekan, u xuddi shu san’at bilan gazetxonga ta’sir etadi, ishontiradi. Publitsistikaning bu asosiy va yetakchi vazifasi uni o‘tkir siyosiy kuchga ega qiladi. Bu esa o‘z navbatida, undan aniq va ta’sirchan nutqni talab qiladi. Shuning uchun siyosiy gazeta publitsistikasi tili hamisha ikki tendensiyaga amal qiladi: ekspressiya (tezkorlik) bilan standartning o‘zaro almashinib turishiga asoslanadi. Gazeta nutqidagi bu ikki tendensiya



publitsistik uslubning ikki funksiyasidan kelib chiqadi: informativlik ya'ni, axborot berish va ta'sir qilish funksiyasidan. Publitsistikaning bu ikki xil funksiyasi o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular ayni bir paytda amal qiladi. Publitsistik nutqning xuddi mana shu ikki vazifasi unda ekspressiya bilan standartning o'zaro almashinib turishini, intellektual va emotsional obrazli nutqiy vositalarning o'zaro kontrast qo'llanishini talab etadi. Bu xolat gazeta tilida dialektik birlikni tashkil qiladi. Ekspressiya bilan standartning o'zaro almashinib turishi nafaqat siyosiy gazeta publitsistikasi nutqiga xos, balki umuman publitsistika uslubiga xosdir.

Siyosiy gazeta tilida publitsistik uslubning xalqqa murojaat qilish, siyosiy faollikni oshirishga undash, qiziqtirish, rag'batlantirish va targ'ibot qilish kabi xususiyatlarni amalga oshirishga qaratilgan ta'sir etish funksiyasi yetakchi o'rinda turadi. Shuning uchun gazeta faqat xabar yoki axborot berib qolmasdan, ayni paytda, gazetxonga ta'sir ham etadi. Jumladan, bu uslubda axborotlar zahirida ham, eng avvalo, ommaga ta'sir etish va targ'ibot vazifasi yotadi. Bu holatni quyidagi maqola matnida ko'rish mumkin: *“Biz o'z imkoniyatlarimizdan foydalanib, Vatan, xalq manfaatlariga xizmat qilib, uning yanada boyishiga, ravnaq topishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim” (“Yoshlar ovozi” 2017-yil, 79-son).*

Ob'ektni ta'sirli aks ettirish tendensiyasi ekspressiv nutq vositalarini talab etadi. Shunga ko'ra ayrim axborotlar tilida ham standartlashgan rasmiy siyosiy nutq vositalari ekspressiv nutq vositalari bilan almashinib turadi.

Hayotning turli sodasini aks ettirayotgan hozirgi kun siyosiy gazeta uslubi va uning nutqiy qatlami nihoyatda keng qamrovga egadir. Bu qatlam ekstralingvistik (ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-madaniy va b), hodisalar bilan bevosyta bog'langan holda sodir bo'lgan va bo'layotgan so'z, ibora, termin va atamalardan iboratdir. Unda ijtimoiy-siyosiy va xalqaro-siyosiy, diplomatik, davlat boshqaruvi va huquqiy targ'ibot mavzulariga oid so'z-iboralar, termin va boshqa lisoniy elementlar faol ishtirok etadi:

Siyosiy, ijtimoiy mavzularda faol qo‘llanuvchi so‘z va iboralar<sup>20</sup>: *tinchlik, istiqloq, mustaqillik, ozodlik, demokratiya, xalq manfaatli, delegatsiya, bayonot, murojaatnoma, ratifikatsiya, ultimatum, pozitsiya, raddiya, doktrina, sanksiya, hamkorlik, hamjihatlik, ijtimoiy sherikchilik, omma, ommaviy namoyish, ommaviy miting, shior, xavfsizlik, qurolsizlanish, taraqqiyparvar kuchlar, taraqqiyparvar jamoatchilik, tinchliksevar xalqlar, tinchliksevar kuchlar, xalqaro tinchlik aijumani, diplomatik munosabatlar, ikki tomonlama munosabatlar, xalqaro munosabatlar, davlatlararo munosabatlar, barcha manfaatdor tomonlar, tinch hamkorlik prinsiplari, qurol-yarog‘, sovuq urush, sovuq munosabatlar, yadro urushining oldini olish, keskinlikni yumshatish, qurollanish poygasini jilovlash, tinchlik, huquq, ijtimoiy taraqqiyot, xalqlar do‘stligi, va boshqalar. Bu xil so‘z va iboralar shu nutq turining o‘ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bular shu nutq uchun xos ma’no ottenkalarini ifodalabgina qolmay, ayni o‘rinda ijtimoiy-siyosiy va xalqaro mavzudagi siyosiy publitsistik nutqning ta’sir kuchini oshirishga ham hizmat qiladi. Yana shuni qayd etish lozimki, bu xil mavzularni yoritishda ba’zan nutq turlari aralashib ketadi. Bu jarayonga xususan rasmiy uslub aralashib turadi. Shuning uchun bu qatlamda rasmiy uslubga doyr elementlarni, leksik vositalarni, terminlarni ham uchratish mumkin. Masalan, huquq, sanksiya, qaror, bayonot, murojaatnoma, huquqiy kelishuv, boshqaruv yo‘riqnomasi, farmoyish va boshqalar.*

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida istiqloldan bugunga qadar nashr etilgan siyosiy gazetalarning davriy xususiyatidan kelib chiqib, ularning materiallarida yuqoridagi kabi siyosiy, ijtimoiy so‘z va iboralar (birikmalar) hamda terminlarning tarkibiga yangi so‘zlarning kirib kelishi, siyosiy nutq elementlarining yangilanishi holati, yoki aksincha siyosiy uslubdagi materiallarda qo‘llangan so‘zlar ayrimlari nafaol so‘z sifatida iste’modan chiqib ketayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

---

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикасидаги ижтимоий-сийсий нашрлардан, хусусан “Yoshlar ovozi” газетасида берилган материаллар асосида олинган.

Bugungi siyosiy gazeta uslubida quyidagi soʻzlarning anchayin faollashuvini koʻrish mumkin:

*globallashuv sharoiti, butunjahon sammiti, forum, haftalik, strategiya, harakatlar strategiyasi, demokratiya, diplomatik korpus, strategik sherikchilik, manfaatli hamkorlik, xorijiy hamkor, qoʻshnichilik siyosati, faol tadbirkorlik, innovatsiya, investitsiya, ijtimoiy faollik, petitsiya, ijtimoiy fikr, interaktiv xizmat, xalq qabulxonasi, fuqarolar qabulxonasi, boshlangʻich tashkilot, yoshlar siyosati, memorandum, yoshlar ittifoqi, kelishuv bitimi, qonun ustuvorligi, yoʻl xaritasi, islohot, iqtisodiy infratuzilma, loyiha, qonun loyihasi, davlat dasturi, davlat granti, yoshlar dasturi, huquqiy nazorat, jamoatchilik nazorati, hukumat portali, axborot xizmati, ijtimoiy daxldorlik, istiqbolli reja, davlat tashrifi, rasmiy delegatsiya, konferensiya, videokonferensiya (videomuloqot), onlayn xizmat, rasmiy ijtimoiy tarmoq, rasmiy sayt, onlayn nazorat, davlat xizmati, selektor, chora-tadbir, huquqiy targʻibot, targʻibot tadbiri, axborot xavfsizligi, prezident jamoasi, uyushmagan yoshlar, taʼlim tizimi, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy dorixona, parad, ommaviy fleshmob, maʼnaviy-maʼrifiy, adolat, aholi muammosi, fuqarolar murojaati, taʼlim sifati, matasaddi tashkilot, iqtisodiy liberalizatsiya, boshqaruv tizimi, turizm, muzokara, press-klub, fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilot, manzilli reja, avf etish, kafillikka olish, litsenziya, ptent, davlat haridi, ijtimoiy soʻrovnomaga va hokazo.*

Siyosiy publitsistik uslubga oid soʻz va iboralar (terminlar) bir necha usullar orqali yuzaga keladi.<sup>21</sup>

Soʻz maʼnolarining kengayishi bilan: Hozirgi siyosiy gazeta publidistikasi nutqida qoʻllanayotgan ayrim leksik vositalarda semantik-uslubiy taraqqiyot jarayonini kuzatish mumkin. Chunki hayotda soʻzga nisbatan tushuncha koʻp. Soʻz esa tushunchaga nisbatan kamdir. Shuning uchun soʻzlarning maʼnosi kengayadi, ularning maʼnosi koʻchadi. Maʼlum lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan bu xil leksik vositalar hozirgi siyosiy publitsistik nutqda ishtirok etib, ijtimoiy-siyosiy maʼno ottekkalarini yuzaga keltiradi. Bu soʻzlarning mazmuni

---

<sup>21</sup> Бу ҳақда қаранг: Муаллифлар. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – 134 б.

kengaygan. Endilikda ularning zimmasiga ijtimoiy-siyosiy ma'no anglatish vazifasi ham yuklangan. Hozir bu so'zlar xuddi shu funksiyada publitsistik nutqda tez-tez qo'llanib turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, bu jarayonda tarjimaning roli ham kam emas. Hayotdagi aniq voqealar bilan bevosita bog'liq holda qo'llanayotgan bu so'zlar va tarjimalar o'zbek tilidagi mavjud imkoiyatlardan foydalanish zaminida (so'z ma'nolarining kengayishi, ma'noda ko'chishlar tufayli) yuzaga kelgan. Bu xil so'z va iboralar fikrni obrazli, ta'sirchan va ayni paytda konkret ifodalashga xizmat qiladi. Chunki bular bir tildan ikkinchi tilga shunchaki tarjima bo'lmay, balki o'zbek tilining ichki imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan holda, xuddi mana shu imkoniyatlarga tayanilgan holda yuzaga keladi. Shuning uchun tarjima aynan (so'zma-so'z)mi yoki emasmi, bundan qat'iy nazar u tasvirga singishi, ifoda ob'ektiga mos kelishi shartdir.

Siyosiy publitsistik uslubdagi xalqaro munosabatlarga doir kontekstlarda faol qo'llanayotgan *butunjahon sammiti, qo'shnichilik siyosati, strategik sherikchilik, ijtimoiy faollik, manfaatli hamkorlik* kabi terminologik iboralar ham rus tilidagi “*всемирный саммит*”, “*политика соседних стран*”, “*стратегическое партнёрство*”, “*общественная активность*”, “*взаимовыгодное сотрудничество*” kabi iboralarning tarjimasidir. Rus tilidan juda o'rinli tarjima qilingan bunday iboralar hozirgi kunda turli ijtimoiy hamkorlikdagi davlatlarning o'zaro birgalikda hamkorlik aloqalarini mustahkamlash ma'nosida keng qo'llanmoqda. “...*bu Rossiya MDH faoliyatida, siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarida o'zaro manfaatli munosabatlarni kengaytirishda muhim va asosiy o'rin egallashini yana bir bor tasdiqlaydi*” (“*Yoshlar ovozi*” 2017-yil, 85-son); “*Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Almazbek Atambayev O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risida deklaratsiya imzolandi*” (“*Yoshlar ovozi*” 2017-yil, 83-son);

Tilimizda avvaldan mavjud bo'lgan quyidagi so'zlarda ma'noda kengayishlar, ma'noda ko'chishlar yuz berganini kuzatamiz. Endilikda siyosiy gazetalar uslubida ular yangi, qo'shimcha mazmun kasb etgan. Masalan *tomon* so'zi dastlab ma'lum bir yo'nalishni, ma'lum bir yo'nalishdagi tomonni anglatgan bo'lsa, hozir gazeta publitsistikasida ma'nosi kengayib ijtimoiy-siyosiy mazmunni ham qamragan: har ikkala tomon (har ikkala mamlakat), tomonlarning manfaati, tomonlarning strategik hamkorligi, ikki tomonlama munosabatlar va hokazo. Yoki *strategiya* so'zini olaylik. Bu so'z dastlab aynan urush olib borish san'ati, urush va harbiy operatsiyalar o'tkazishning umumiy rejasi<sup>22</sup> bo'lgan bo'lsa, hozir umumiy ijtimoiy-siyosiy ma'noga ham ega: harakatlar strategiyasi, strategik hamkorlik, iqtisodiyotning strategik ahamiyati, ta'lim tizimidagi strategik vazifalar va boshqalar. Shuningdek, *xavfsizlik*, *xuruj*, *innovatsiya* kabi so'zlarning ham mazmun doirasi, ma'no qirralari kengaygan. Endilikda bular keng doirada ijtimoiy-siyosiy mazmun ham kasb etgan. "...iqtidorlarini rivojlantirish, axborot xurujlari va nosog'lom muhitdan himoya qilishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda" ("*Yoshlar ovozi*" 2017-yil, 91-son);

Siyosiy gazeta nutqining o'ziga xos uslubiy xususiyati jiddiy, rasmiy til bilan ta'sirchan, obrazli nutq vositalari bilan standart nutq vositalarining dialektik birligi va bu kontrast hodisalarning o'zaro almashinib turishidan iboratdir.

Matnlarning ekspressivligini, obrazlilikini ta'minlovchi, ularni ta'sirchan qiluvchi vositalar juda ko'p va turli-tumandir. Ularni tanlash va qo'llash esa ifodaning maqsad va vazifasiga, mavzuning mazmuni va xarakteriga bog'liqdir. Shuningdek, bu vositalarni ko'llashda gazetxon ommaning taraqqiyot darajasi hamda ijtimoiy-siyosiy savodxonligi hisobga olinadi.

Siyosiy publitsistik uslubdagi materiallar ham ortiqcha detallar, ortiqcha so'zlar va g'aliz iboralar bo'lmasligi talab etiladi. Bunday materiallar tili qayta-

---

<sup>22</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007, 3-жилд, 573-бет.

qayta takror qo‘llanib turadigan standart nutq vositalaridan iborat bo‘ladi: Binobarin, siyosiy materiallardagi axborot va xabarlar ham boshqa turdagi gazetalar kabi hamisha standart nutq vositalari bilan ifodalanadi.

Siyosiy uslubdagi xronik axborotlar va xabarlarning mavzusi rang-barangdir:

*“Davlat bizga qarorda belgilangan mablag‘dan tashqari yana 10 million dolargacha qo‘shimcha mablag‘ ajatyapti. Har yili 50 nafardan stajyor-tadqiqotchi Fanlar akademiyasiga byudjet hisobidan maqsadli qabul qilinadi”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 91-son*)

Bu xil xabarlar turli mavzudagi voqealarni kundalik nutqimiz yordamida oddiy, ravon va juda ixcham tarzda (ko‘pincha 3—5 va 10—15 satrdan iborat bo‘ladilar) yoritib boradilar. Masalan, *“Guliston shahrida bitiruvchilar, vaqtincha ishsiz yoshlar bandligini ta‘minlashga qaratilgan mehnat yararkasi o‘tkzildi”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 71-son*) Bularda muallif shaxsi mutlaqo ishtirok etmaydi. Bunday xabarlar nutqi ekspressiv bo‘yoqdorlikdan asosan xoli bo‘ladi. Bu esa shu nutqqa yanada rasmiylik xususiyatini va siyosiy tus baxsh etadi. Binobarin, matnlar ham tayyor nutq vositalaridan iborat bo‘ladi. Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, nufuzli siyosiy uchrashuvlarga, xalqaro muzokaralarga bag‘ishlangan maxsus rasmiy xabarlar, nutqi ekspressivlikdan tamoman xoli emas. Bularda bir oz bo‘lsa-da, siyosiy publitsistik ruh, publitsistik ta‘sirchanlik mujassamlashgan bo‘ladi.

Mazkur uslubda gazetadagi siyosiy material operativ (tezkor) tarzda siyosiy-ideologik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga xizmat qilar ekan, doimo zamon bilan hamnafas bo‘ladi. Quyidagi misollarga e‘tibor qilsak nutq vaziyatiga mos tushgan qisqa, ixcham va konkret shakldagi nutqiy parchalar, turli rubrika va sarlavhalar, shior va chaqiriqlar tayyor formalardek tuyulsada faktlarga, voqea-hodisalarga jiddiylik, yuqori emotsionallik va yuqori publitsistik pafos bilan munosabat bildiradi, ochiq ijtimoiy baho beradi: *“Milliy armiyamiz - bizning iftixorimiz va g‘ururimiz”* (*“Yoshlar ovozi” 2018-yil 5-son*); *“Eng asosiy vazifa – shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini*

*ta'minlashdir"* (*"Yoshlar ovozi"* 2018-yil 13-son); Siyosiy jarayonlarini yoki boshqa xil muhim davlat ahamiyatiga molik voqealarni, faktlarni aks ettirishga qaratilgan materiallarda faktlar, hodisalar tahlil va talqin etiladi. Bunday materiallar tilida nutqiy betaraflik, kishiga ta'sir etish va tezkor ma'lumot berish namoyon bo'ladi. Bunda davlat siyosiyati va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim masalalari va uni hal etish yo'llari o'rta tashlanadi hamda axborot chuqur tahlil o'zaro uzviy bog'langan tarzda amalga oshadi: *"Bolalarga sut mahsulotlari va meva tasdiqlangan normadan kam berilmoqda, baliq mahsulotlari esa deyarli berilmayapti. Yig'ilishda bu borada berilgan topshiriqlarga muvofiq ajratiladigan mablag'lar miqdori yetarli ekani aniq hisob-kitob qilindi"*. (*"Yoshlar ovozi"* 2018-yil 19-son)

O'zbek matbuotining ajralmas yirik tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy gazetalar va ijtimoiy-siyosiy ruknlardagi materiallarda uslubning jamiki mazmun-mohiyati va til xususiyatlarini boshqa yo'nalishlardagi gazetalar kabi maqola orqali ifoda etiladi. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimiz tufayli hozirgi kunda yangi-yangi mavzular ko'zga tashlanib, ularning qamrovi ham tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, uslubning o'ziga xos jihatlarining ko'zga tashlanishi, axborot doirasining kengayishi va tildagi o'zgarishlar, yangi so'zlarning iste'molga kirib kelishi ta'sirida siyosiy uslubdagi nashrlarning soni ham oshdi.

Mavzularning o'ziga xos tabiati, ekstralingvistik omillari unda obrazli nutq vositalarini, ba'zan, so'zlashuv nutqi elementlarini qo'llashni ham taqozo etadi. Ba'zi publitsistik materiallarda til dialektikasini aks ettiruvchi juda ko'p faktlarni, til taraqqiyotidagi miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga olib keluvchi holatlarni, masalan, yozma nutq elementlari bilan og'zaki nutq elementlarining o'zaro sintezini quzatish mumkin.

Siyosiy uslubdagi materiallarda ham davlat boshqaruvidagi muhim siyosiy jarayonlar, jamiyatda yuz berayotgan voqealar yoki favqulodda vaziyatlar, keskin o'zgarishlar, tasodifiy holatlar jurnalistlardan odatdagi maromdan farq qiladigan, tamoman o'zgacha ifoda vositalarini talab etadi. Xuddi mana shunday nutqiy vaziyatlarda bayon qilish ritmi ham o'zgaradi boradi. Oldingi ma'lum

vaziyatlar bilan, odatdagi tematik xususiyatlar bilan bog‘liq ravishda bir qolipda takrorlanib turadigan nutq vositalari, bir xildagi, bir me‘yordagi normal shakllar, ayrim standart iboralar, navbatchi shiorlar endi qisqa va urg‘uli iboralarga, ta‘sirchan sintagmalar va jumalarga yoki aksincha, ba‘zan uyushiq bo‘lakli va har xil oborotli konstruksiyalarga aylanadi. Shuningdek, bunday nutqiy vaziyatlar obrazli so‘z va iboralarni, metaforalarni, deformatsiyalashgan frazeologik birikmalarni, ta‘kid xarakteridagi takrorlarni, izohlash maqsadida qo‘llanuvchi bo‘laklarni, dialoglarni va boshqa xil nutqiy vositalarni qo‘llashni taqozo etadi. Jurnalistlar ham xabar berish, ham ta‘sir qilish uchun qo‘l keladigan barcha ifoda vositalaridan foydalanadilar.

Mana bu publitsistik materiallardagi ommaviy kommunikatsiyada ta‘sirchanlik va jiddiy siyosiy oxang dialoglar bilan amalga oshadi: *“O‘zbekiston yoshlar ittifoqining ilk qadamlari haqida nima deya olasiz?*

*- Bilasizsizmi, yoshlar mamlakatda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta‘minlovchi kuchdir. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tashkil etilishi men va tengdoshlarim hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi.”* (“Yoshlar ovozi” 2017-yil 63-son) Bu yerda so‘zlashuv nutqi xususiyatlaridan biri dialogning yozma monologik nutqqa, jumladan, siyosiy gazeta tiliga kirib borganligini ko‘ramiz. Tasvir jarayoniga mos holatlar turli xil savol-javob birliklari, dialogik nutqqa xos har xil jumlar orqali aks ettiriladi. Bunday vaziyatda nutq vositalaridan foydalanishda odatdagi hodisa, ya‘ni monologga savol-javob birliklarining kiritilishi fikrni bayon qilishning eng qulay yo‘llaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi ijtimoiy-siyosiy gazeta publitsistikasi tilida bu usuldan foydalanish ko‘pincha ko‘zga tashlanmoqda. Maqolalarda qahramoning holatini va u bilan bog‘liq jarayonlarni siyosiy ruh bilan dialog elementlari orqali, og‘zaki monologik nutqqa xos vositalar bilan ifodalaydi. Gazeta uslubida kishi e‘tiborini favqulodda o‘ziga tortuvchi, kutilmaganda gazetxon diqqatini jalb qiluvchi har xil fikrlardan, og‘zaki so‘zlashuvga xos turli qurilishlardan foydalanish ham shu jarayondagi publitsistik nutqning jonli, ta‘sirchan bo‘lishida va uning tabiiyligini



ta'minlashda muhim rol o'ynovchi usullaridan biridir. *“Kitobxonmisiz? Unda bu yangilik aynan siz uchun! Darvoqe, agar biror asar izlayotgan bo'lsangiz javon ichidagi maxsus jurnalga yozib qo'ysangiz kifoya. Zora, biror xotamtoy siz uchun keltirib bersa.”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 89-son*) Demak, so'zlashuv nutqi vositalarining yozma monologik nutqda, jumladan gazeta nutqiga kirib kelishi shu nutq ob'ekti bilan, shu nutq vaziyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bunday nutq vositalari axborotni o'ziga xos usul bilan xabar qilishga xizmat etadi. Axborot publitsistik ta'sirchanlik bilan operativ tarzda aniq, ravon, ommabop tilda gazetxonga yetkaziladi. Bu publitsist izlanishi, mahorati, tasvir jarayonida voqelikning barcha hodisalarini uzviy bog'liq holda nazarda tutishning samarasidir.

Siyosiy publitsistik nutqda qo'llanadigan uyushiq bo'laklar, uyushiq bo'lakli konstruksiyalar voqealarni va faktlarni sanash hamda ularni, alohida-alohida ta'kidlash uchungina xizmat qilib qolmay, balki shu nutqda ochiq ijtimoiy-siyosiy bo'yoq ham bag'ishlaydi. Ana shu ochiq ijtimoiy-siyosiy bo'yoqda esa publitsist munosabati mujassamlashadi, uning faol fuqarolik pozitsiyasi o'sha faktlarga ochiq baho berishida jiddiy va ko'tarinki ruh bilan namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi parchada buni yaqqol ko'rish mumkin. *“Albatta, bunday rejalar amalga oshgach, qo'shimcha isho'rinlari yaratiladi, odamlarning daromadi ko'payadi, turmushi yaxshilanadi, dunyoqarashi o'zgaradi, biznesga keng yo'l ochiladi, yoshlar til o'rganishga qiziqqa boshlaydi va alal-oqibatda, hududlarning ham iqtisodiy salohiyati yuksalib boradi”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 68-son*) Bu yerda ham kitobiy nutqqa oid uyushiq konstruksiyalar – nominativ gaplar shu voqealarni xarakterlash uchun muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Siyosiy publitsistik nutq ham boshqa uslublardek adabiy normalarga qat'iy rioya qiladi. Siyosiy tematik yo'nalishdagi materiallar bosiladigan gazeta nutqi, tor sohalarga oid terminlardan, professionalizm va dialektizmlardan, chet so'zlardan iloji boricha qochishga harakat qiladi. O'rni kelganda, fikrning ta'sirli va teran chiqishini ta'minlovchi barcha vositalar, til va uslub

imkoniyatlarining barcha jozibali tomonlari ishga solinadi. Buning uchun badiiy usullar – sifatlash, o‘xshatish, metafora, anafora, epifora va antiteza kabi priyomlar, ritorik so‘roqlar, inversiya hodisasi kabi vositalar shu nutqning o‘ziga xos informativlik va ekspressivlik xususiyatini ayni bir paytda, o‘zaro bog‘langan holda amalga oshiruvchi juda ta’sirchan vosita va imkoniyatlardandir. Masalan, so‘zlarni takror qo‘llash orqali gradatsiya (fikrni kuchaytirish) yaratilishini ko‘ramiz: *“Mutolaa, mutolaa va yana bir bor mutolaa, yoshlarning asosiy shiori bo‘lmog‘i darkor”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 78-son*)

Shunday qilib, siyosiy publitsistik uslubning taraqqiyoti ijtimoiy o‘zgarishlar va til siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mana shu ekstralingvistik o‘zgarishlar boshqa uslublar qatori, publitsistik uslubning ham taraqqiy qilishiga turtki bo‘ldi. Ammo shuning bilan bir qatorda, tilning o‘z ichki harakatlari (til faktlaridagi o‘zgarishlar, janrlar taraqqiyoti, uslubiy an‘ana, til siyosatidagi yetakchi omil – xalqchilik, ommaviylik kabi harakatlar) ham mazkur uslubning taraqqiyotiga sabab bo‘ladigan alohida omillar bo‘lib xizmat qiladi. Bu ikki faktor doimo uzviy bog‘langan holda amal qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy nashrlardagi muayyan mavzularda qo‘llanayotgan so‘zlar, iboralar, terminlar, atamalar va boshqa nutqiy vositalar – so‘zlashuv nutqi elementlari bilan kitobiy elementlarning kontrast qo‘llanishi, ayrim o‘rinlarda har xil nutqiy janr va uslublarning o‘zaro qo‘shilib ketish holatlari ushbu publitsistik nutqning ochiq baho berishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turli-tuman fikriy farqlarni, nozik qirrali ma’no tovlanishlarni yuzaga chiqaradi. Qisqasi, bularning hammasi publitsistik nutqning o‘ziga xos xususiyatini ifoda etadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, bu kategoriyalardagi turli xil ma’no qirralari adabiy til normasi doirasida, ya’ni tildagi ma’nolar sistemasida bo‘ladi: bu ma’no nozikliklari, har xil ma’noviy qirralar til normasi doirasidan chetga chiqishi mumkin emas. Shuning uchun publitsist har qanday sharoitda ham adabiy til qonuniyatlariga amal qiladi va rang-barang nutq vositalarini to‘g‘ri

qo‘llay bilishni, faktlarga, voqea-hodisalarga ob‘ektiv munosabat bildirishni asosiy va yetakchi o‘ringa qo‘yadi.

Jurnalist yoki muallifning o‘ta emotsiyaga berilib ketishi oqibatida publitsistika shaxsiy hujumga, siyosiy vaziyatga negativ munosabatga aylanib ketishi kerak emas. Demak, tanqid ob‘ektiv bo‘lmog‘i, haqiqatga to‘la mos kelmog‘i va siyosiy tahlil hamda holislik tamoyiliga asoslangan bo‘lishi lozim. Sub‘ektiv baho berish ham, shaxsiy emotsiya ham shunga bo‘ysunishi shartdir.

Siyosiy publitsistik uslubning yana bir xususiyatini uning sarlavhalari orqali ko‘rishimiz mumkin. Mavzuviy jihatdan boshqa tur va janrdagi gazeta tili o‘z tematikasi bo‘yicha siyosiy uslubnikidan farq qiladi. Siyosiy uslubdagi gazeta tilida ham sarlavha uch vazifani: maqolani nomlash, maqolaning mazmunini bildirish va reklamalilik xususiyatini bildiradi.

Siyosiy uslub materialida ham sarlavha maqola yoki xabarning mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi. Xuddi mana shu o‘rinda sarlavhaning informativlik funksiyasi namoyon bo‘ladi. Bu funksiya, ya‘ni sarlavhaning informativlik vazifasi faqatgina atab qolmaydi, balki maqola, xabar, axborot, umuman olganda material haqida ma‘lumot beradi. Bu ma‘lumot esa turli shakl, turli kurinishlarda bo‘ladi va sarlavha ham shunga muvofiq qisqa va keng qamrovli bo‘ladi. *“Global tadbirkorlik haftaligi: mahorat, muloqot, hamkorlik asosi”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 94-son*; *“Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”* (*“Yoshlar ovozi” 2017-yil 99-son*); *“Hammasi mas‘uliyatga yarasha”* (*“Yoshlar ovozi” 2018-yil 42-son*). Sarlavha tanlashda ham jiddiy mas‘uliyat va zukkolik hamda siyosiy bilimdonlik zarur. U xalq tilini chuqur bilishni, materialning xarakterli xususiyatini sarlavhada ham bera olishni, aniqlik, ta‘sirchanlik va ixchamlikni talab qiladi.

Bugungi kunda o‘zbek matbuotidagi publitsistik uslub yuqori taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tarildi. Bu o‘sish, eng avvalo, jamiyatdagi barqaror demokratik boshqaruv, davlatdagi iqtisodiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘langan holda ro‘y berdi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, mavjud vaziyatni

o'zida mukammal ifoda etadigan, binobarin, jamiyat a'zolariga to'la-to'kis va ob'ektiv tarzda ma'lumot ulashadigan soha bo'lmish publitsistika, ommaviy axborot vositalari va ularning funksional faoliyati uchun yanada muhim vazifa ko'ndalang turibdi. Chunki "Jamiyatimiz hayotida demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi"<sup>23</sup>. Binobarin, Muhtaram yurtboshimizning soha rivoji uchun qaratgan e'tibori publitsistik uslub imkoniyatlarini kengaytirdi va davlatimizdagi til siyosati rivojiga alohida turtki bo'ldi. Provrda, turli ekstralingvistik faktorlar zaminida yuzaga kelgan bu taraqqiyot jarayonida eski kitobiylik an'anasi cheklandi. Siyosiy nashrlarning saviyasi yanada o'sdi, formati o'zgardi va ular uslubidagi nutqga ko'plab badiiy va so'zlashuv nutqi elementlari kirib keldi. Sohadagi islohot va barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat publitsistik nutqning o'ziga xosligini ta'minlashga erishildi: siyosiy gazetalar tilida qisqalik va ixchamlik, soddalik va ommaviylik yetakchi prinsipga aylandi.

---

<sup>23</sup> Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси

## UMUMIY XULOSALAR

Gazetalarimiz tiliga hayot baxsh etuvchi, uning tabiiyligini, taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy manba, eng birinchi navbatda, o'zbek xalqining tili va leksik-grammatik boyligidir. Gazetalar tilidagi bu nutq vositalari o'zbek xalqi tilida asrlar davomida qo'llanib kelingan. Shu bilan birga, hayotiy ehtiyoj tufayli rus tilida qardosh xalqlar tilidan va chet tillardan yangi-yangi nutqiy vositalar ham olingan. Har tomonlama kamol topayotgan xalqimiz hayoti mana shunday yangi nutq vositalarining yaratilishiga, uning matbuot tili orqali ommaviylashib, til boyligiga yanada boylik qo'shilishiga zamin yaratgan asosiy omillardan biridir.

Gazeta tilidagi ayrim sintaktik konstruksiyalarda ro'y bergan o'zgarishlar asosan periferik (gapning markaziy modeliga ta'sir etmagan) xarakterdadir.

Gazeta tili asosan xalq tilining grammatik xususiyatiga tayanadi. Shuning uchun ham jurnalist gazeta sintaksisida xalq didiga mos oddiylik, ixchamlik yetakchi rol o'ynashini doimo nazarda tutadi.

Davlat va nodavlat OAV faoliyatini davr talabi asosida tashkil etish, gazetalarda berilayotgan siyosiy materiallarni ob'ektiv va ta'sirchan shakllarda, janrlar talablariga mos, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilgan holda yetkazish sohasida mas'uliyatini yanada oshirish uchun siyosiy nashrlarning faoliyatini janr va tildan foydalanish nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish va baholash muhim ahamiyatga ega

Bugungi kunda ilm ahli badiiy ijodning barcha turlarida, publitsistik nashrlarda ham o'zbek adabiy tili imkoniyatlarining jamiki jihatlarini qamrab olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohasining nufuzini oshishiga xizmat qilib kelmoqdalar. Qolaversa, publitsistikaning rivoji ham o'zbek adabiy tilining boyligi, mazmundorligi, leksik-semantik, terminologik, frazeologik va lug'at jihatdan sermahsulligidan quvvat olib matbuot sahifalarini bezab boraveradi.

Davlat va nodavlat gazetalarida nashr etilgan siyosiy materiallarning ayrim til xususiyatlarini o'rganish asosida, gazetalarda tilimiz imkoniyatlaridan qay

darajada foydalanilayotganini anglash va bu turdagi materiallar gazeta tilini tegishlicha baholashda, o‘zbek adabiy tili imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, insonlarning nutq madaniyati va ijtimoiy-siyosiy savodxonligini yanada oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **1. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2014. – 76 b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. – 80 b.
5. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent. – O'zbekiston, 2009. – 40 b.
6. Отамуратов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – 120 бет.

### **2. Ilmiy- nazariy adabiyotlar:**

7. Qurbanova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 114 b.
8. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. Ўзбек нутқ маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – 192 б.
9. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – 384 б.
10. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент, 2001. – 330 бет.
11. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – I, II, III жилдлар.
12. Усмонов А. Ўзбекнинг сўзи: Публицистик мақолалар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 160 бет.
13. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 бет.

14. Абдулазизова Н. Ўзбек журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002. – 192 б.
15. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 524 бет.
16. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 341 бет.
17. Эшанова М. Сиёсий лингвистиканинг фалсафий асослари. – Тошкент: Akademiya, 2013. – 116 бет.
18. Жамоа. Ҳозирги замон журналистикаси. – Тошкент: Aloqachi, 2008. – Б.56.
19. Бабаева А. О Языке газет (ўзбек тилида). Тошкент: Фан, 1983. – 56 бет.
20. Otamirzayeva S., Yusupova M. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘AJBNT markazi, 2004. – 168 b.
21. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 281.
22. Гуломов Ш. Сўз кадри ва масъулияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 120 бет.
23. Азизов А. Русско-Узбекский краткий словарь. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 510 бет.
24. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – 2 bet.
25. Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: ToshDU, 1995.
26. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
27. Normamatov S. Abdulla Avloniy she‘riyati leksikasining ma‘noviy-uslubiy xususiyatlari: Fil.fan.nomzodi diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 24 b.
28. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 339 b.
29. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1–680 b.; 2– 672 b.; 3–688 b.; 4–2008. 5– 608 b.; V – 592 b.



30. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 216 б.
31. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
32. Хамраева Х. Озод Шарофиддинов публицистикасининг тили ва услуби: фил. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.
33. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: фил. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.
34. Костомаров В. Г. – Русский язык на газетной полосе, – Москва, 1974.
35. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 бет.
36. Профессор Иномжон Русуловнинг илмий мероси ва hozirgi замон ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: Қўқон давлат педагогика институти (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2015.
37. Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари: ЎЗМУ (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.
38. Хожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963.
39. Uluqov N. Magistrlik dissertatsiyasi: ulubiy qo‘llanma. Namangan, 2016. – 50 bet.

#### **Internet adabiyotlari:**

40. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
41. [www.academy.uz](http://www.academy.uz)
42. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
43. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
44. [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)